2. Raqibini bajarishi mumkin bo'lgan usullarini oldindan o'rganib, o'sha usullarga qarshi usul bajarish reaksiyasini oshirish (bu taktikaga ham kiradi).

3. Sportchini mashg'ulotlaridagi aktiv harakatlari, mashg'ulotlaridagi natijalari va musobaqalarda erishib qolgan yutuqlarini eslatib ruhan tetiklashtirish.

4. Sportchilarni ruhiy tayyorgarliklaridan yana bir refleksiya, ya'ni bellashuv davomida o'yinning qanday borishini bilish qobiliyati hisoblanadi. Stol tennischi uchun raqibini fikrini, bajaradigan harakatlarini, o'yin usullarini, uning chap va o'ng tomondan bajaradigan usullarini aktivligini tezlik bilan analiz qilish va tezlik bilan qarshi javobga tayyor bo'lishni uyg'otish lozim.

5. Raqibining emotsiyasi yuz harakatlaridan qaysi harakatlari xaqiqiy va qaysi harakatlari qalbaki ekanligini bilib turish sportchiga o'z vaqtida himoyada bo'lishi va qarshi hujumga o'tishga imkon beradi.

6. Ruhiy tayyorgarlik jarayonida sportchilarni o'z holatlarini, sezgilarni to'g'ri baholashga va ularni harakatining funksional imkoniyatlari bilan bog'lashga o'rgatish zarur.

7. Mushaklarni to'la va tez bo'shashtira olish sportchiga musobaqa jarayonida o'z imkoniyatlaridan to'la foydalana olishiga yordam beradi. Mushaklarni samarador bo'shashtirish, sportchi o'z diqqatini bir zumda to'play olishi uchun va juda qiyin sharoitlarda yuqori samarali harakatlarni bajarish uchun sharoit tug'diradi.

8. Sportchini butun fikrini musobaqa jarayoniga qarata bilish, fikrini bir joyga to'plash.

Ko'pgina sportchilarning musobaqalardagi sustkashligi yoki muvaffaqiyatsizligi ularni haddan tashqari hayajonlanganligidan kelib chiqadi. Musobaqadagi ishonchsizligi usullarni oxirigacha bajarmaslikka olib keladi. Buning natijasida bajarilgan usul uchun qo'llanilgan qarshi usulga duch keladi va mag'lubiyatga uchrashi mumkin [8,9].

Sportchilarning ruhiy tayyorgarligini oshirish ularning karakteriga ham bog'liq. Bu jarayonlarni amalga oshirish malakali va tajribali ustoz murabbiylarning ish uslublariga ham bog'liqdir.

Ba'zi holatlarda murabbiylarning shogirdlariga nisbatan ruhiyatini ko'tarish uchun qo'llaydigan bir necha usullarni kuzatishimiz mumkin: -Ma'naviy va irodaviy tayyorgarligini oshirish.

-Diqqatini bir joyga to'plash. -Maqsadga intilish.

-G'alabaga ishonchini uyg'otish

-Raqibiga imkoniyat qoldirmasdan harakat qilishga undash.

-Charchaganda ham ildamlik bilan musobaqani davom ettirishga undash.

-O'z-o'zini nazorat qilishga o'rgatish.

-Raqibiga befarq bo'lmasligini eslatish.

Sportchining uslublarini natija berishiga ishontirish, tushuntirish va raqibi uslublarini bilgan hollarda esa unga qarshi usullarni ishlatish tavsiyalarini berish, natijasi yaxshi bo'lishini bildirish bilan ruhiyatini ko'tarish.

Bularning barchasi g'alabaga olib keladigan omillardir.

Xulosa.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar natijalariga asoslanib quyidagicha xulosalar qilish mumkin:

- "Stol tennis" tushunchasi, atamalari har bir millatning tili tarkibida tarixan shakllanib, rivojlanib kelmoqda;

- "Jismoniy madaniyat" sohasidagi tushuncha va atamalarini o'zbek tilshunosligining muhim ilmiy tadqiqot yo'nalishi deb belgilash;

- "Jismoniy madaniyat" sohasining tushuncha va atamalarini, aholining kundalik hayotiga chuqur singdirishda, ularning bilimlarini chuqurlashtirish orqali jismoniy harakat amallari bilan astoydil mashg'ul bo'lishlarida asosiy omillardan biridir. Bu borada ta'lim muassasalaridagi jismoniy madaniyat fanini o'qitishdagi ta'lim jarayonlari yetakchi omillardan biridir. Shuning uchun soha bo'yicha turli xil lug'atlar, izohli lug'atlarni ishlab chiqish zarur.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Barchukova G.V.A.N. Mizin. Настольный tennis. Nashriyot Divizion.2015
2. Yeremenko K. Mastera maloy raketki K.Eremenko, A. Silinkov Toshkent Yosh gvardiya 1988,128 bet.
3. G.V. Barchukova, V.M.Bogushas,O.V.Matytsin. Teoriya i metodika nastol'nogo tennisa Nashriyot "Akademiya".2006
4. Orman L. Sovremennyy nastol'nyy tennis L.Orman-M FIS 1985 175-bet.
5. E.Ya.Frimerman Kratkaya sportivnaya entsiklopediya "Nastol'nyy tennis" Nashriyot "Olimpiya press" 2005  
Lex.uz.  
Arxiv.Uz.  
Ziyonet.uz.

## ONA TILI – MILLAT KO'ZGUSI

**Rassulova Zaxro**

*Boshlang'ich ta'lim fakulteti Kechgi guruh talabasi*

Ona tili – millat ko'zgusi

Til – millatning o'tmishi, buguni va ertasini bog'lab turadigan mustahkam ko'prik. U darz ketsa, istalgan millat o'zi, o'zligi, ma'naviy qiyofasini butkul yo'qotadi. Til – madaniyat, ma'rifat, axloq, tarbiya va shaxs kamolotining bosh mezon. Bu mezon shikastlansa, millat tanazzulga, uning go'zal va abadiy qadriyatlarini yo'qlikka yuz tutmog'i muqarrardir. Unutmaylikki, inson ruhiy kechinmalarining rangin tasviri, o'y-fikrlarining jo'shqin tabiati, fitratu fikratidagi erk va hurriyat mushohadasining nurli tasviri Ona tilining jozibasi, shukhi, so'nmas va betakror qudrati orqali namoyon bo'ladi.

Xalqlar, millatlar, elatlar etnik kelib chiqishi, shakl-u shamoyili, madaniyati va tarixiy rivojlanish omillariga ko'ra, inkor etib bo'lmas mushtarak omillarga ega bo'lishi mumkin. Ammo muayyan bir millatning, ma'lum bir xalqning bu dunyoda mavjudligi, tirikligi va yashovchanligini ko'rsatuvchi yagona tiniq ko'zgu – Ona tilidir. Tilga bo'lgan muhabbat hissi, mehr tuyg'usi, qondoshlik sezimi go'dak ong-u shuuri, murg'akkina qalbiga ona allasi bilan singadi. Dunyoda boshqa biror tushuncha yoki qadriyat muqaddas kalima – Ona so'zi bilan yonma-yon tilga olinmaydi. Ya'ni til – yaratuvchidir. O'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan, bugunga qadar yashab, ulug'lanib kelayotgan o'z milliy an'analari, og'zaki ijod namunalari, olimlarimiz tomonidan tadqiq qilinayotgan tarixiy, ilmiy, diniy va adabiy manbalar o'zbek tilining yaratuvchilik qudrati mahsulidir.

Tarix ona tiliga o'gay munosabatning, g'ayri tillarga ko'r-ko'rona rag'bat ko'rsatib, inson o'zi so'zlab, muloqot qilib turgan tilning kamsitilishiga ko'p bor guvoh bo'lganligi ma'lum. Ammo tilning millat butunligini ta'minlovchi, kishi qalbida faxr-u iftixor tuyg'usini tarbiyalovchi sehrli kuchi turli davrlarda unga bo'lgan ishonch va e'tiqodni mustahkamlab kelgan. XIII asrda elxoniyalarda, XV asrda temuriylar davlati, aniqrog'i, Husayn Boyqaro saltanatida turkiy tilning mavqeyi davlat tili sifatida yuksalgani ana shu fikrlarning bir isbotidir. 1989-yilda o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi o'zbek xalqining o'ziga bo'lgan sobit ishonchi, milliy g'urur va o'zligini qaytarish yo'lidagi ilk qadam edi. Oradan 2 yilcha vaqt o'tib-o'tmay xalqqa hurriyat va mustaqillik shavqini ulashgan, sitam va zo'rlik, ishtiboh va mutelikdan zada bo'lgan erksevar yuraklarga o'z taqdiri uchun kurashish matonatini singdirgan ham ana o'sha – davlat tili haqidagi Qonun edi.

Sevimli shoirimiz Rasul Hamzatov nihoyatda kamchilik kishi so'zlashuvchi avar tilining jozibasi haqida yozgan she'rida “jahon minbaridan yangramasa-da” “Jonimga Masihdir onajon tilim” deya ona tilining kishiga jon baxsh etuvchi ilohiy qudratini ta'riflaydi. O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov ona tilining shukuhli navosini

“bulbul”ning “kalomi”ga o‘xshatarkan, o‘z tilini kamsitib unga panja ortidan qarayotgan, o‘zgalar tilini ulug‘lab tilyog‘lamalik qilayotgan ayrim kimsalarni boshqalarga taqlid qiluvchi qush – “to‘ti”ga tenglashtirgan.

Bir necha kundan buyon ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilinayotgan ana shunday “to‘ti”sifat “ziyolilar”ning rus tiliga davlat tili maqomini berish haqidagi takliflariga shoirlar, olimlar va ko‘ksida vatanparvarlik, asriy qadriyatlariga hurmat hissi jo‘sh urgan yurtdoshlarimiz o‘z munosabatlarini bildirishdi. Ko‘p millatli, mehridaryo va samimiyati ulug‘ o‘zbek xalqi hamisha boshqa millatlar va xalqlar bilan yelkadosh, do‘st-birodar bo‘lib yashagan. Ularning tili, dini, urf-odatlarini hurmat qilgan va bu davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, “O‘zbekiston Respublikasi Davlat tili” haqidagi qonunning bir nechta moddalarida O‘zbekiston hududida o‘zga tillarning qo‘llanishi qonun yo‘li bilan rag‘batlantirilgan. Jumladan, “Til to‘g‘risida”gi Qonunning 4-moddasida shunday yozilgan: “O‘zbekiston Respublikasida davlat tilini o‘rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo‘lish ta‘minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi”.

Zamonaviy dunyoda til o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoq, xorijiy tillarda muloqot qilish va bu orqali yurtimiz madaniy, ma‘naviy, ilmiy hayotida yuz berayotgan yangiliklarni chet ellarga targ‘ib qilish, o‘z navbatida, jahonda yuz berayotgan ilm-fan, texnika va boshqa sohalaridagi eng so‘nggi kashfiyotlardan xabardor bo‘lish istagi ayni damda har qachongidan kuchli. Buning uchun nafaqat rus yoki ingliz, balki istalgan Sharq va Yevropa davlatlari tilini o‘rganish uchun yurtimizda keng imkoniyatlar yaratilgan. Bu sohada ko‘plab davlat va nodavlat ta‘lim muassalari faoliyat yuritayotganligi hammaga ayon. Shunday ekan, millatning bir butunligini ta‘minlab, uning yorqin ma‘naviy qiyofasini, o‘zbek xalqining o‘ziga xos ruhiyati, azaliy va abadiy qadriyatlari, mustahkam va sinmas irodasini o‘zida jonli aks ettirib turgan Ona tilimizga nafaqat rus tili, balki boshqa har qanday tilning davlat tili sifatida yondosh bo‘lishini hech bir sabab bilan oqlab bo‘lmaydi. etodlari. T.: O‘qituvchi, 1992.

## JAMOATCHILIK FIKRINING OILAVIY HAYOT VA YOSHLAR TARBIYASIGA TA'SIRI

**N.J.Raxmatova**

*Buxoro shahar kasb-maktabio'qituvchilari*

**K.Bahodirov**

*Ta'lim ustasi*

**G.T.G'aybullayeva**

Mustaqilligimiz sharofati bilan yurtimizda milliy qadriyatlarimizni e'zozlash, oilani va nikohni mustahkamlash, oiladagi farzandlar ta'lim-tarbiyasiga jiddiy yondashish masalalariga katta ahamiyat berila boshlandi. O'zbekistonda ma'naviy, barkamol, sog'lom avlodni tarbiyalashga katta e'tibor berilmoqda. Bu borada belgilangan rejalarni bajarish Vatanimizning kelajakda rivojlangan dunyoviy demokratik davlatlardan biriga aylantirishning muhim shartidir. Buyuk davlatimiz poydevorini sog'lom avlodlargina barpo eta oladi.

Sog'lom avlodni tarbiyalashda oilaning o'рни muhim va betakrordir. Inson salomatligi va ma'naviy kamolotni birinchi poydevori oilada qo'yiladi. Bu borada o'zbek xalqining oilada farzand tarbiyalashdagi tajribasi diqqatga sazovordir. Bu tajribada milliy tarbiya an'analari, inson ma'naviyatini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan umuminsoniy, diniy qadriyatlar ham o'z ifodasini topgan. Mustaqillik sharoitida oilada farzand tarbiyalash borasidagi an'alarimiz davr ruhi va ehtiyojlari bilan bog'lanib yanada kattaroq ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli oilani mustahkamlash, uning ma'naviy-axloqiy tarbiya borasidagi ahamiyatini kuchaytirish masalasi davlat siyosatida tobora katta o'rin olmoqda. Birinchi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev bu masala bo'yicha quyidagi fikrni aytganlar: "Yoshlarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, hayot abadiyligi, avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviyat qo'rg'oni bo'lmish oilani mustahkamlash bugungi kunda barchamizni nainki asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimizga aylanishi darkor"

Darhaqiqat, inson ma'naviyatining birinchi kurtaklari oilada shakllanadi. Oila mustahkam bo'lishi uning ahloqiy huquqiy asoslari barqarorligi komil insonni tarbiyalashning birinchi zaminidir.

Har bir ota-ona farzandini barkamol bo'lib voyaga yetishini istaydi. Farzand tarbiyasi qo'ni-qoshnilar ta'siri, mahallalardagi muhitga ham bog'liqligi sababli o'zbeklar barcha davrlarda jamoatchilik fikriga befarq qaramagan. "Hovli olma qo'shni ol", "Qo'shning tinch bo'lsa - sen ham tinch", degan maqollar ham ijtimoiy muhitning inson, jamiyat hayotidagi o'rnini, ahamiyatini yuksak darajada ifodalangan hikmatlaridir.

Har bir oilaning tinchligi-yonma-yon yashayotgan qo'shnining ham tinchligi. Shu sababli ham oilalar o'rtasidagi iliq, samimiy aloqalar mahallalardagi qo'ni-qo'shnichilik

munosabatlarning asosiy shaklini tashkil etadi. Qo'shnilar bir-birining oilaviy turmush sharoitlarini, er va xotin o'rtasidagi munosabatlarning ahvolini, farzandlar tarbiyasi borasidagi yutuq va kamchiliklarini boshqalardan ko'ra ko'proq bilganlar, turmushning quvonchli kunlarda, motam damlarida bir-biriga maslahatchi, ko'makdosh bo'lganlar. Har bir oilaning tinchligi barcha qo'ni qo'shnilarining, qolaversa, butun mahallaning tinchligidir.

Oilalarda bo'ladigan kelishmovchiliklar, nizoli holatlar, axloqsizliklarga baho berishni aqilli, obro'-e'tiborli, katta hayot tajribasiga ega bo'lgan oqsoqollarga topshirish ma'quldir. Hayotda ko'pni ko'rgan otaxon va onaxonlar bunday ishlarni adolatli hal qiladilar. Biror oiladagi yomon vaziyatga nisbatan jamoatchilik fikrini bildirishdan maqsad axloq, odob, ba'zan chegarasidan chiqqan kishilarga nasihat qilish, ularni to'g'ri yo'lga solishdir. Bu ishdagi samarali yo'l fe'lu-atvori muhokama etilayotgan shaxsni o'z vijdoniga murojaat qilishga o'rgatishdir. Jamoatchilik fikri ota-onalar va bolalarning jamiyat, jamoatchilik oldidagi mas'uliyatini kuchaytiradigan katta ijtimoiy, ma'naviy omilidir.

Bir bolaga yetti qo'ni-qo'shni ota-onadir, degan gap bor. Bu ham bizning milliy qadriyatimiz, mahallalarda qo'ni-qo'shnilar, ayniqsa keksalar yoshlarning yurish-turishiga befarq qaramaydilar, har qadamda ularni tarbiyalashga, to'g'ri yo'lga solishga harakat qiladilar, halol mehnatga chorlaydilar. Mahalla, oila hamkorligi bo'lajak avlodning qanday bo'lishi, ota-ona va yaqin qo'shnilarining tanbehlari barchasi faqat yaxshi niyatda bo'lishini ko'rsatadi. Ota-ona va mahallaning katta yoshdagi kishilarning o'zaro ahilligi, kichiklarga g'amxurligi oilaviy tarbiya asosini tashkil etadi. Shuni ta'kidlash kerakki, oilaviy tarbiyaning samaradorligi bolalarning tarbiyasi uchungina sarflangan vaqt bilan o'lchangan, balki oilaning ijtimoiy bosqichi bilan, ota-onalarning mahalladagi bro'si va ularning ma'naviy-axloqiy darajasi bilan aniqlanadi. Bundan ota-onalarning katta kishilarning yoshlar tarbiyasi yuzasidan burch va mas'uliyatini chuqur his qilishlarini his qilishlari yetakchi mezomdir.

Shuni ta'kidlash joizki, oilani mustahkamlash, yoshlarni tarbiyalashga jamoatchilik fikrining kuchi va ta'siridan keng foydalanish hozirgi kunga ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu boradagi tajriba va an'analardan samarali foydalanish mustaqillik sharoitida amalga oshirilayotgan ma'naviy, tarbiyaviy ishlarni yaxshilashning muhim sharti hisoblanadi.

## MUHAMMAD YUSUF IJODIDA ONA VATAN MADHI

**Ergashova Mashxura Amandjanovna**

*Toshkent imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan  
1-son kasb-hunar maktabiona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Yuldasheva Barno Turgunovna**

*rus tili fani o'qituvchisi*

Muhammad Yusuf ijodining eng o'tkir qirralaridan biri ona yurt, el, vatan haqida me'yoriga yetkazib, boshqalarga o'xshatmay yoza olishidir. Shoir shunchaki maqtoqlar tizmasini tizmaydi. U ko'nglidagi yurtga bo'lgan sadoqati, millatga bo'lgan mehri, fidoyi tuyg'ularini qo'shiq qilib kuylaydi. "Bizdan ozod vatan qoladi", "Fidoyilar", "Vatan", "Inshoolloh", "Tilak", "Ona Turkiston", "Vatan madhi", "Alpomishlar yurti bu diyor", "Hayrat", "Izhoril dil", "Bobodehqonim", "O'zbekman", "Vatan yagonasan", "Tavallo", "O'zingdan qo'ymasin xalqim", "Mening vatanim", "Inshoolloh", "Sizga aytsam", "Hur o'lkam", "O'zbekiston" va yana boshqa ko'plab vatan mavzusidagi she'rlarida shoir balandparvozlikdan qochib, samimiy satrlarda yurtiga dil izhoril qiladi. "Iqror" she'ridagi quyidagi satrlar kishi ko'ngilga surur bag'ishlaydi:

O, ota makonim, Onajon o'lkam,

O'zbekiston, jonim to'shay soyangga.

Senday mehribon yo'q, Seningdek ko'rkam,

Rimni alishmasman bedapoyangga.

Shoir shu ruhda davom etib:

"Parijning eng go'zal restoranlarin,

bitta tandiringga alishmasman men.

Bahorda Baxmalda tug'ilgan qo'zing,

arab ohusidan azizroq menga"

deya ko'nglini ocharkan she'rni o'zbekona kamtarlik hamda g'urur bilan:

"Seni bilganlarga qilaman ta'zim,

seni bilmaganga rahmim keladi" deb tugatadi.

Muhammad Yusufning she'riyatga kiyib kirgan nazmiy yaktagi o'ziniki edi. She'ru shoirlik uning uchun umriy qismatga aylangan edi. U hayotning hamma hashamlariga erishmog'i mumkin edi, biroq hammasidan she'rini, vijdonini baland qo'ydi. Muhammad Yusuf shon-shuhratni tama qilmadi, shuhrat unga yetisholmay, xun bo'lib izlaridan yugurib, so'roqlab yurdi. Dardli, samimiy tiniq she'rlari bilan qisqa vaqt ichida qo'shiqchilikning dimiqib ketgan havosini tozartirishga muvaffaq bo'ldi. She'rlari qo'shiqday o'z ohangi, musiqasi bilan tug'ilgani uchun ham darhol xalq suygan, odamlarning ko'nglidan tez joy olgan mashhur ashulalarga aylanib ketdi. Uning qo'shiqlari maddohlik, quruq qofiyabozligu o'rtamiyonachilikdan yiroq, nimaiki yozgan, aytgan bo'lsa – chin dildan, mehr va muhabbat bilan aytgan edi. Oddiy kundalik so'zi ham shoirning kimligini, hayotdagi tutumi, insoniy qiyofasini bildiradi.



Vatanparvarlik oiladan, oilaviy muhitdagi tarbiyadan boshlanadi. Muhammad Yusuf o'z oilasini bo'lakcha mehr bilan sevuvchi, oilaparvar, bolaparvar inson edi. Buni validai muhtaramasi, uka-singillari, umr yo'ldoshi va qizlariga bag'ishlangan jigarlik, dilbandlik va otalik mehr-muhabbati barq urib ufurib turgan "Onam yig'lar", "Fotima", "Madina", "Uzr", "Rafiqamga", "Ey, jufti halolim", "Lolaqizqaldoq" singari ko'plab she'rlarining hozir ham keng kitobxonlar tilida mehr bilar aytilib, o'qilayotganidan ham bilsa bo'ladi. Shoirning buningdek ta'sirli misrali bilan kitobxon ko'nglidagi yurtsevarlik daraxtining ildizi yanada mustahkamlanadi, barglari ko'rkamlashadi. Zotan, yaxshi she'r mudroq ko'ngillarni uyg'otishi, uyg'oq ko'ngillarning shiddatini oshirishi darkor. Vatan haqida umimiy ruhda yozilgan she'rlar adabiyotimizda istagancha topiladi. Muhammad Yusuf she'rlarinig ulardan farqli jihati, bu hassos shoirning vatan haqidagi she'rlarini o'qiganingizda bevosita O'zbekiston haqida so'z ketayotganini sezib turasiz. Shoir she'rni "O'zbekiston" deya nomlashi, unga beriladigan ta'rif yorqinroq his qilinishi uchundir. Aslida, yuksak va teran ma'nolar ifodasiga xizmat qilgan soddalik hamma murakkabliklardan balandda turadi. Chunki bunday she'rlarni birgina istak bilan yaratib bo'lmaydi.

Muhammad Yusuf vatanparvarlik, millatparvarlik mavzusidagi she'rlarida yurt madhini baland pardalarda o'ta samimiy, to'lqinlanib, yonib, ayta oldi. Vatanni e'zozlab, xalq, millat g'ururuni oshufta dil bilan ulug'ladi. Tarixiy shaxslarga, ona tiliga, vatanga, millatga mansub har bir narsaga e'tibori va bu ehtirom bilan baland badiiy saviyada ifodalay olgani she'rlarining ta'sirchanligini yanada oshirdi. Muhammad Yusufning Vatan mavzusidagi she'rlarining ahamiyati shundaki, u vatan haqida shunchaki yozib bo'lmasligini, dililingda yurt sevgisi balqib turmagan bo'lsa, yozganlaring shunchaki tizmalar bo'lib qolishini isbotladi. U XXI asr boshidagi o'zbek she'riyatida vatanparvarlik mavzusidagi she'rlarning eng go'zal namunalarini yaratishi bilan vatanparvarlik lirikasini yuksak pog'onaga olib chiqdi. Bir so'z bilan aytganda Muhammad Yusuf shoir sifatida vatan haqida, xalq haqida qanday yozish kerakligining yuksak namunasi ko'rsatdi. Muhammad Yusuf beshta doston yaratdi. "Ey, dil", "Qora quyosh", "Ko'hna quduq", "Temirlar nidosi", "Osmonning oxiri" kabi asarlarida Muhammad Yusuf talantining yana bir qirrasidostonnavisligi zuhurlangan. Muhammad Yusuf dostonlarida har bir so'zning o'z o'rni bor. Shoirning so'z qo'llash mahorati mazmun mohiyatiga mos so'zlarni kerakli joyda ishlatishida ko'rinadi. Dostonlarda arxaizmlardan ham, sheva so'zlaridan ham me'yorda foydalanadi muallif. Umuman asar tili, kitob haqida so'z ketganda professor Nizomiddin Mahmudovning quyidagi fikrlarini eslash o'rinli bo'lurdi: "Kitobdagi so'z rost va raso bo'lishi, kitoxonni ishontirishi, tuyg'ulariga ta'sir qilishi yoki, kamida, bu tuyg'ularni qiynamasligi shart. Aks holda, kitobning sariq chaqalik qiymati qolmaydi. Kitob badiiy bo'ladimi, ilmiy bo'ladimi, bundan qati nazar, undagi til tugal, til idroki intizomi uchun ibrat maqomida bo'lmog'i lozim" Muhammad Yusuf she'rlarida ham, dostonlarida ham kitobxon tuyg'usini qiynamaslik, aksincha uni yolqinlashtirish ustivorligini sezamiz. Ishontirish qudratini tuyamiz.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki shoir ijodida Vatanga bo'lgan muhabbatni, el-yurt oldidagi farzandlik burchini hamisha his qilib yashash tuyg'usini, o'z qadrimizga o'zimiz yetishimiz, bo'laman degan el botirim deb yashashi darkorligini ta'sirli misralarda ko'rishimiz mumkin. Shoir Vatan suvratini ko'nglimizda yanada jilolantirib, bir-birimizni avaylab, mehrla umr kechirish istagini lovullatadi. Yurt tinchligi eng ulug' ne'matligi va buning qadriga yetish mas'uliyatini sezdiradi. Muhammad Yusuf dostonlari uning iste'dodining ko'lami, she'riyatning katta – kichik janrlarida, har qanday mavzuda badiiy jihatdan puxta, fikriy teran asarlar yoza olishining isbotidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Xalq so'zi. // 2016-yil 16-dekabr.
2. Ahmedov S., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. 1-qism. – T.: Sharq, 2013.
3. Ahmedov S., Qosimova B., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot-6. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. –T.: Ma'naviyat. – 2009
4. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 1996.
5. Yo'ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo'ldoshibekov J. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua. – T.: Sharq, 2013.
6. WWW. Google.com
7. WWW. Ziyocom
8. Old. Ziyonet.uz

## OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA SMETALARNI TUZISH VA IJROSI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

**Yoqubov Nurbek Faxriddin o'g'li**

*Toshkent Moliya instituti 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *Maqola O'zbekiston Respublikasidagi oliy ta'lim muassasalari buxgalteriya hisobida smetalar tuzish, tasdiqlash va taqdim etish tartibi jarayonini takomillashtirishga bag'ishlangan bo'lib, maqolada mazkur mavzu yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlar hamda ushbu jarayonni takomillashtirish yuzasidan o'tkazilgan tahlillar va ularning natijalari aks ettirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *xarajatlar smetasi, daromadlar va xarajatlar smetasi, xarajatlar guruhi, shtat jadvali, buxgalteriya hisobi, shaxsiy hisobvaraqa, budjet mablag'i, budjetdan tashqari mablag'lar.*

Mamlakatimiz moliya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar byudjet tashkilotlarida, jumladan, oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mablag'lar manbalaridan samarali foydalanishni talab etmoqda. Respublikamizda iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan hozirgi sharoitda ta'lim tizimini moliyaviy sog'lomlashtirishning strategik yo'nalishi, byudjetdan ajratiladigan mablag'larni asosli ravishda qisqartirib borish orqali byudjetdan tashqari mablag'larni keng jalb etish bozor iqtisodiyotining asosiy talablaridan hisoblanadi.<sup>2</sup>

Ma'lumki, 2017-yilning 1-sentabridan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining quyi muassasalarida buxgalteriya xizmatlari tugatilib, moliya-buxgalteriya xizmatlari tashkil qilindi. Ta'lim muassasasini byudjetdan moliyalashtirishning me'yoriy negizi «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, «Byudjet tizimi to'g'risida»gi qonun va Vazirlar Mahkamasining 414-sonli qarori kabi qonunchilik hujjatlaridan iborat. Bular ta'lim muassasasi ichki moliyaviy oqimini tartibga soladi hamda xarajatlar me'yori va rahbarlar huquqini belgilaydi. Ta'lim muassasasining rahbarlari belgilangan qoidalar doirasida tartibga soluvchi buyruqlar va farmoyishlar berish huquqiga egadirlar.

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobi O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi O'RQ-404-sonli "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010-yil 22-dekabrda "Ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi yo'riqnoma, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2019-yil 14-yanvardagi 3120-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Tovar-moddiy zaxiralar" nomli byudjet hisobining 7-sonli standarti va "Ta'lim muassasalarining hamda davlat maqsadli jamg'armalarining

---


<sup>2</sup> Ibragimov K.Sh. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni takomillashtirish (Oliy ta'lim muassasalari misolida). Iqt. fan. fal. dok. dis. avtoreferati. – T., 2018. – 54 b

buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotini tartibga solish byudjet hisobi standartlari” hamda boshqa qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta’lim muassasasida buxgalteriya hisobining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tartibda, to’g’ri, to’liq va o’z muddatida yuritilishi buxgalteriya hisobi xizmati rahbari mas’ulligida amalga oshiriladi. O’zbekiston oliy ta’lim muassasalari amaliyotida bugungi kunda “Elektron hujjat aylanishi to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi qonunining 5-moddasiga muvofiq “UzASBO”- ta’lim muassasalarida avtomatlashtirilgan buxgalteriya hisobi dasturiy ta’minoti asosida “elektron raqamli imzo” bilan tasdiqlangan holda yuritilmoqda. “UzASBO” dasturi ta’lim muassasalarining buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish uchun mo’ljallangan dastur bo’lib, barcha operatsiyalar, ko’rsatkichlar va me’yorlar, shu jumladan, mehnatga soatbay haq to’lash miqdorlari amaldagi qonun hujjatlariga asosan o’z vaqtida kiritish asosida buxgalteriya amallari amalga oshirilib kelinmoqda.


Iqtisodchi olim M.X.Saidov o’z tadqiqotlarida oliy ta’lim tizimi daromad va xarajatlar smetasining bajarilishi xususida so’z yuritib: “Oliy ta’lim muassasasining xarajatlar smetasi uning faoliyatini ta’minlash uchun byudjetdan beriladigan mablag’ning umumiy miqdori, maqsadli yo’nalishi va oylar bo’yicha taqsimlanishi belgilanishini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi. Mazkur hujjat O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan namunaviy shaklda tuziladi”, – deya ta’kidlab o’tgan.

Xarajatlar smetasi-budjet tashkilotlari, markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari va budjetdan mablag’ oluvchilar tomonidan ularga tegishli moliya yili uchun budjetdan ajratiladigan mablag’lar hajmi doirasida tuziladi. Xarajatlar smetasi ro’yxat raqami 2634 bo’lgan O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirining buyrug’idagi 1- ilovasiga muvofiq tuziladi. Xarajatlar smetalarini tasdiqlash joriy moliya yilining 10-martidan kechiktirmay amalga oshiriladi.



1-rasm. Oliy ta'lim muassasalarida tuziladigan smetalarining turlari<sup>3</sup>  
Xarajatlar smetasi 4 guruhdan iborat:

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirining "Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash" haqida buyrug'i. 15.12.2014 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 2634.



#### 2-rasm. Xarajatlar smetasining tarkibiy guruhlarini.4

Budjetdan mablag' oluvchilarning I va II guruh bo'yicha xarajatlar to'lovi birinchi navbatda amalga oshiriladi. Bunda, I guruh xarajatlarini II guruh xarajatlari to'lovisiz amalga oshirish taqiqlanadi. Tegishli byudjet bo'yicha I va II guruh xarajatlari to'lovi uchun g'azna hisobvaraqlarida zarur mablag'larni qoplaydigan qoldiqlar mavjud bo'lganda, I va II guruh xarajatlarini to'liq amalga oshirgan tashkilotlar bo'yicha IV guruh xarajatlarini amalga oshirishga ruxsat etiladi.

Budjetdan tashqari jamg'armalarga ega bo'lgan budjet tashkilotlari budjetdan tashqari jamg'armalar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasini har yili tuzadi va tasdiqlaydi. Bunda, budjetdan tashqari mablag'lar tushumlari va xarajatlarini rejalashtirish budjet tashkilotlari tomonidan qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilangan daromadlar manbai va xarajatlar yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasalarida daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosini amalga oshirish jarayonida kamomadlar, xizmat safarlari, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar bo'yicha xodimlar bilan, stipendiya to'lovlari bo'yicha talabalar bilan hisoblashuvlar amalga oshiriladi. Budjet tashkilotlarida asosan vaqtbay asosida ish haqi to'lanadi. Bunda xar qaysi byudjet tashkiloti namunaviy shtatlar jadvaliga asoslanib shtat birliklarini shakllantiradi va belgilangan tartibda razryadlarini qo'yib oylik ish haqini (okladlarini) hisoblaydi va shtatlar jadvalini shakllantiradi. Hozirda byudjet tashkilotlarida shtatlar jadvaliga kiritilgan ba'zi lavozimlar bo'yicha qonunchilikka asosan belgilangan oylik ish haqlari tayinlanadi.

Belgilangan tartibda tasdiqlangan budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi, daromadlar va xarajatlar smetasi hamda shtat jadvallari, shuningdek budjet mablag'larini taqsimlovchilarning va markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlarining jamlanma xarajatlar smetasi, jamlanma daromadlar va xarajatlar smetasi hamda jamlanma shtat jadvallari, ular iqtisodiyot va moliya organlarida ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin amalga kiritiladi.

4 A.S.Ramazonov, Sh.V.G'aniyev, I.N.Qo'ziyev. "Budjet hisobi va nazorati". Darslik. T.: "Nihol print". 2022 yil. 195 b.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirining "Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash" haqida buyrug'i. 15.12.2014 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 2634.
2. A.S.Ramazonov, Sh.V.G'aniyev, I.N.Qo'ziyev. "Budjet hisobi va nazorati". Darslik. T.: "Nihol print". 2022 yil. 195 b.
3. Ibragimov K.Sh. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni takomillashtirish (Oliy ta'lim muassasalari misolida). Iqt. fan. fal. dok. dis. avtoreferati. – T., 2018. – 54 b.
4. Saidov M.X. Oliy ta'lim muassasalarini moliyalash. – T.: Moliya, 2002-yil. – 134 b.
5. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) - (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi).

## ELEKTRON TO'LOVLARNI AMALGA OSHIRISHDAGI QULAYLIKLAR, ELEKTRON TO'LOV TIZIMLARINING XAVFSIZLILIGI VA AFZALLIKLARI

**M.R.Choriyeva**

*(Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot  
Texnologiyalari universiteti, magistranti)*

**Annotatsiya:** *Zamonaviy dunyoda elektron to'lovlar tobora ommalashib bormoqda va keng qo'llanilmoqda. Ular Internet yoki boshqa elektron aloqa vositalari orqali moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishga imkon beradigan tizimlardir. Ushbu maqolada biz elektron to'lov tizimlarining asosiy tamoyillarini, ularning turlarini, shuningdek bunday tizimlarning afzalliklari va kamchiliklarini ko'rib chiqamiz.*

**Kalit so'zlar:** *Elektron to'lov tizimlari(ETT), elektron hamyonlar, PayPal, Skrill, WebMoney, kripto-valyuta tizimlari, xalqao to'lovlar, kiberhujumlar xavfi.*

Yurtimiz mustaqillikka erishganidan so'ng, mamlakatimiz miqyosida elektron to'lov tizimlari (ETT) birinchi bor bank tizimiga joriy etish ishlab chiqildi va uni joriy etish 1994- yil 18- martdagi Vazirlar Mahkamasining 146-sonli «Bank tizimini takomillashtirish va pul-kredit muomalasini barqarorlashtirish chora- tadbirlari to'grisida»gi Nizom asosida amalga oshirila boshlagandi. Elektron to'lov tizimlari — bu Internet yoki boshqa elektron aloqa vositalari orqali moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishga imkon beradigan maxsus vositalar va texnologiyalar tushuniladi. Ular jismoniy shaxslar, kompaniyalar yoki tashkilotlar kabi turli ishtirokchilar o'rtasida naqd pul yoki qog'oz hujjatlarga ehtiyoj sezmasdan pul o'tkazish imkoniyatini beradi.

Elektron to'lov tizimlari foydalanuvchilarga real vaqt rejimida to'lovlarni amalga oshirish, onlayn-do'konlarda xaridlarni amalga oshirish, to'lovlarni to'lash va kompyuterlar, smartfonlar yoki planshetlar kabi elektron qurilmalar yordamida boshqa moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradigan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda xavfsizlik va qulaylikni ta'minlaydi.

Elektron to'lov tizimlari, shuningdek, moliyaviy mablag'larni saqlash va boshqarish, tranzaksiyalar tarixini kuzatish imkoniyatini beradi, bundan tashqari valyuta konvertatsiyasi, avtomatik to'lovlar va hisob holati to'g'risida bildirishnomalar kabi turli xil qo'shimcha xizmatlarni taqdim etish imkoniyatini yaratib beradi.

Elektron to'lov tizimlari ularning samarali va xavfsiz ishlashini ta'minlaydigan bir nechta prinsiplarga asoslanadi:

Birinchi tamoyil — foydalanuvchilarni aniqlash ya'ni identifikatsiya qilish, hamda autentifikatsiya qilishdir. Xavfsizlikni ta'minlash va ularning moliyaviy mablag'lariga ruxsatsiz kirishni oldini olish uchun foydalanuvchilar tizimda noyob tarzda aniqlanishi kerak. Buning uchun loginlar, parollar, PIN-kodlar, barmoq izlari yoki boshqa identifikatsiya usullaridan foydalanish mumkin.

Ikkinchi tamoyil — ma'lumotlarni shifrlashdir. Barcha moliyaviy operatsiyalar va

foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari zamonaviy shifrlash usullari bilan himoyalangan bo'lishi lozim. Bu ma'lumotlarga ruxsatsiz kirishni oldini oladi va ularning maxfiyligini ta'minlaydi.

Uchinchi tamoyil — tranzaksiyalar xavfsizligini ta'minlash. Elektron to'lov tizimlari barcha moliyaviy operatsiyalar xavfsiz va ishonchli bajarilishini ta'minlashi zarur. Bunga hisobdagi mablag'larning yetarliligini tekshirish, foydalanuvchi va tizionidan tranzaksiyani tasdiqlash, firibgarliklardan himoya qilish va tranzaksiya muvaffaqiyatsiz bo'lgan taqdirda pulni qaytarish kiradi.

To'rtinchi tamoyil — boshqa tizimlar bilan integratsiyani amalga oshirish. Elektron to'lov tizimlari boshqa bank tizimlari, to'lov shlyuzlari, onlayn-do'konlar va boshqa xizmatlar bilan o'zaro aloqada bo'lishi kerak. Bu foydalanuvchilarga turli joylarda va turli to'lov tizimlarida to'lovlarni amalga oshirish va xaridlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Beshinchi tamoyil — foydalanishning qulayligi. Elektron to'lov tizimlari foydalanuvchilar uchun oson va qulay bo'lishi lozim. Bunga intuitiv interfeys, to'lovlarni tezkor qayta ishlash, takroriy to'lovlar uchun ma'lumotlarni saqlash imkoniyati va to'lov jarayonini iloji boricha qulay va samarali qiladigan boshqa xususiyatlar kiradi.

Shuni o'z o'rnida ta'kidlab o'tish joizki, respublikamizdagi tijorat banklariga bu tizimning joriy etilishi banklararo to'lovlarning o'tishini tezlashtirdi va bank faoliyatini to'liq avtomatlashtirishga katta imkoniyatlar yaratdi.

Elektron to'lov tizimlarining bir nechta turlari mavjud, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega va turli sohalarda qo'llaniladi. Ulardan ba'zilarini ko'rib chiqadigan bo'lsak:

Elektron to'lovlarning bank tizimlari bank hisobvaraqaqlari orqali to'lovlar va pul o'tkazmalarini amalga oshirish imkoniyatini beradi. Foydalanuvchilar Internet-banking, banklarning mobil ilovalari yoki to'lov terminallari orqali to'lovlarni amalga oshirishlari mumkin. Bank elektron to'lov tizimlari yuqori darajadagi xavfsizlik va keng imkoniyatlarni, shu jumladan balans, operatsiyalar tarixi va hisoblarni boshqarish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Elektron hamyonlar yoki elektron to'lov tizimlari foydalanuvchilarga pulni elektron hisobvaraqalarda saqlash va Internet orqali to'lovlarni amalga oshirish imkonini beradi. Foydalanuvchilar o'zlarining hamyonlarini bank kartalari, bank o'tkazmalari yoki boshqa usullar bilan to'ldirishlari mumkin, so'ngra ushbu mablag'lardan onlayn-do'konlarda tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish yoki boshqa foydalanuvchilarga pul o'tkazish uchun foydalanishlari mumkin. Mashhur elektron hamyonlarga PayPal, Skrill, WebMoney va boshqalar misol bo'la oladi.

Uyali aloqa operatorlarining to'lov tizimlari foydalanuvchilarga mobil telefonlar yordamida tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirishga imkon beradi. Foydalanuvchilar o'zlarining bank kartalarini yoki elektron hamyonlarini mobil raqam



bilan bog'lashlari va SMS-xabarlar, mobil ilovalar yoki NFC texnologiyalari orqali to'lovlarni amalga oshirishlari mumkin. Bu mobil aloqa, Internet, transport va boshqa xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish uchun qulaydir.

Kripto-valyuta tizimlari foydalanuvchilarga Bitcoin, Ethereum va boshqalar kabi kripto-valyutalar yordamida to'lovlarni amalga oshirishga imkon beradi. Kripto-valyuta tizimida to'lovlar markazlashtirilmagan tarmoqlar orqali, banklar yoki davlat tashkilotlari ishtirokisiz amalga oshiriladi. Kripto-valyuta tizimlari to'lovlarning anonimligi va xavfsizligini ta'minlaydi, shuningdek minimal to'lovlar bilan xalqaro pul o'tkazmalarini amalga oshirishga imkon beradi.

Bular bugungi kunda mavjud bo'lgan elektron to'lov tizimlarining ayrim turlari hisoblanadi. Ularning har biri o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega va tizimni tanlash esa foydalanuvchining ehtiyojlari va afzalliklariga bog'liq hisoblanadi.

Afzalliklari:

1. Qulaylik va tushunarliklik: elektron to'lov tizimlari Internet orqali istalgan vaqtda va istalgan joydan to'lovlarni amalga oshirishga imkon beradi. Bankka tashrif buyurish yoki naqd puldan foydalanishning hojati yo'q.

2. Tezlik: elektron to'lovlar bir zumda yoki bir necha daqiqada qayta ishlanadi, bu vaqtni tejaydi va to'lov jarayonini tezlashtiradi.

3. Xavfsizlik: elektron to'lov tizimlari yuqori darajadagi ma'lumotlarni himoya qilish va moliyaviy operatsiyalarni ta'minlaydi. Shifrlash va boshqa texnologiyalardan foydalanish ma'lumotlarga ruxsatsiz kirishni oldini oladi.

4. Xalqaro to'lovlar: elektron to'lov tizimlari banklarga murojaat qilmasdan yoki yuqori to'lovlarni to'lamasdan xalqaro pul o'tkazmalarini amalga oshirishga imkon beradi. Bu biznes uchun qulay va biznes chegaralarini kengaytirishga imkon beradi.

5. To'lov tarixi: elektron to'lov tizimlari barcha amalga oshirilgan operatsiyalar tarixini saqlab qoladi, bu sizning moliyaviy operatsiyalaringizni kuzatib borish va nazorat qilishni osonlashtiradi.

Kamchiliklari:

1. Internetga qaramlik: elektron to'lov tizimlaridan foydalanish uchun barqaror Internet aloqasi zarur. Agar Internet bo'lmasa yoki uning muammolari bo'lsa, to'lovni amalga oshirish mumkin emas.

2. Kiberhujumlar xavfi: elektron to'lov tizimlari kiberhujumlar va xakerlik hujumlari xavfi ostida. Hisob qaydnomasiga ruxsatsiz kirish yoki shaxsiy ma'lumotlarning tarqalishi moliyaviy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin.

3. Cheklovlar va to'lovlar: ba'zi elektron to'lov tizimlarida o'tkazmalar miqdori bo'yicha cheklovlar bo'lishi yoki muayyan operatsiyalar uchun to'lovlar olinishi mumkin. Bu tizimdan foydalanishning umumiy narxiga ta'sir qilishi mumkin.

4. Ro'yxatdan o'tish zarurati: elektron to'lov tizimlaridan foydalanish ko'pincha ro'yxatdan o'tishni va shaxsiy ma'lumolarni taqdim etishni talab qiladi. Ba'zi foydalanuvchilar uchun bu noqulay bo'lishi yoki maxfiylik bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

5. Jismoniy nazoratning yetishmasligi: naqd puldan farqli o'laroq, elektron to'lovlar jismoniy amalga oshirilmaydi. Bu ba'zi foydalanuvchilar, ayniqsa an'anaviy to'lov usullariga o'rganib qolganlar uchun biroz noaniqlikni keltirib chiqarishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, elektron to'lov tizimlari zamonaviy bank sohasida muhim rol o'ynaydi. Ular insonlarga joy va vaqtdan mustaqil ravishda tez va qulay to'lovlarni amalga oshirishga imkon beradi. Biroq, barcha afzalliklarga qaramay, bunday tizimlar ma'lumotlarning xavfsizligi va maxfiyligi bilan bog'liq kamchiliklari va xavflariga ham ega. Shuning uchun elektron to'lov tizimlaridan foydalanganda ehtiyot bo'lish va xavfsizlik bo'yicha tavsiyalarga amal qilish kerak.

#### ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Ахмедов, Б. А., Якубов, М. С., & Карпова, О. В. (2020). Геймификация образовательного процесса кластерный подход. *Interconf*, 2(38), 371-378.
2. Yusupov, M., Akhmedov, B. A., & Karpova, O. V. (2020). Numerical Simulation of Nonlinear Vibrations of Discrete Mass with Harmonic Force Perturbation. *Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent*, 10 (4), 71-75.
3. Akhmedov, B. A., Xalmetova, M. X., Rahmonova, G. S., Khasanova, S. Kh. (2020). Cluster method for the development of creative thinking of students of higher educational institutions. *Экономика и социум*, 12(79).
4. Internet to'lov tizimlari, ular orqali to'lovlar va xaridlarni amalga oshirish. N.Duisenov, B.A.Akhmedov. Ilmiy maqola. Toshkent. 2021
5. Системы электронных платежей: удобство, безопасность и преимущества. URL:<https://nauchniestati.ru/spravka/sistemy-elektronnyh-platezhej/>

## GENDER DYNAMICS IN UZBEKISTAN: A CRITICAL EXAMINATION OF CHALLENGES AND SOCIETAL

**Tohirova Mukhlisa Fakhridin kizi**

*Uzbekistan State World Languages University*

**Abstract:** *This essay explores the multifaceted challenges faced by women in Uzbekistan, addressing prevalent gender-related issues deeply rooted in societal norms. From the devaluation of girls to the expectations during pregnancy, the narrative delves into the intricate web of cultural expectations shaping the lives of Uzbek women. The article also examines the impact of societal norms on the behavior of both genders, shedding light on the complex interplay between selfless women and competent men. Drawing on personal experiences and observations, the author analyzes the consequences of traditional norms and emphasizes the need for a feminist perspective to foster positive change. The discussion extends to the broader implications of these gender dynamics on mental health, family dynamics, and societal progress.*

**Keywords:** *Uzbekistan, gender dynamics, societal expectations, women's challenges, feminist perspective, cultural norms, devaluation of girls, pregnancy expectations, domestic violence, societal behavior, selfless women, competent men, feminism, mental health, family dynamics, societal progress.*

“You face more hardships in this world if you are a woman.”

But is it actually hard to live as woman? The answer is yes. But individuals are also thrown into hardships, because of their certain disabilities, skin color and financial status, which means living as a female is hard, but not harder or the hardest. In this essay we will discuss about the gender related problems of the Uzbekistan and try to find the roots of them.

So, where is Uzbekistan? Statements below can be a clear answer.

- Uzbekistan, the country well-known for the groom who slapped her bride at their wedding. Reason was the victory of the bride in a game. With his slap the groom clarified who is the bread-winner with power in the family.

- Uzbekistan, homeland of a man killed his children and wife consciously.

- Uzbekistan, the country where women commit suicide with their children.

- Uzbekistan, the place where a teenager was killed after sexual harassment by a middle-aged man.

- Uzbekistan, the country where a woman put fire on herself.

- Uzbekistan, a place where men irritate their legal wives with the footage of themselves cheating on bed.

- Uzbekistan, a place where your status as a woman decreases as you get old and remain single.

- Uzbekistan, a place where orphan girls used for their body by the director of the

orphanage.

- Uzbekistan, a country where the relationship between bride and mother-in-law can be referred as a form of modern slavery.

- Uzbekistan, also the home country of a boy who rescued a Korean woman from the house on fire.

Those are just a few examples for how fruitful trees has grown from the tiny seeds which people of the society planted. When it comes to solve the problem, Uzbeks tend to blame the women for not being patient, obedient, and for being loud, emotional and intuitive. And most times being feminist understood as a woman against her husband's family or a selfish woman who against having a family and only focuses on building career.

In this essay as a female living in this society, I decided to share some of my personal experiences and observations:

#### Infertility and Expectation of a Son During Pregnancy

In a conventional Uzbek society, if the married couple struggles with having a child, despite the medical analysis, the woman is usually considered as an unhealthy and infertile one and forced to have certain treatment even when the problem is in the man, while also being abused and tortured in both physical and mental way.

It is so common fact that most Uzbek families usually want a son, not a daughter. Reasons can differ in accordance with families. Usually they want a son simply because he can carry the bloodline of the family and support the parents during their old age. But for a pregnant bride the son is considered as a weapon against those who tortured her (husband's side), and the return of power and voice that was taken away after the marriage.

But these expectations have their own drawbacks. Sometimes women with only daughters spend their pregnancy with anxiety and stress. Consequently, this distressing psychological position of the mother effects negatively on the development of the fetus, later creating mental or physical disorders. The expectation of a son is the root for most of the domestic violence too.

#### Devaluation of Girls and Restriction Put by Society

The devaluation of girls was more common in past, which is nearly diminished by now, but the concept still has some thin remaining layers in society. Traditionally, most girls are expected to forget their passion and choose family-friendly careers in order not to stand out of the crowd.

In Uzbek society the behavior of the women is more important than their education. But the good manners cannot be achieved without education, since the both ideas are so closely related. The focus solely put on the development of good, soft, naïve and obedient behavior later creates the artificial politeness which is designed to hide the inner hatred towards the instructors. (especially when the instructors are not a member from their family of orientation) This failure in personality causes frauds in family.

In some of the Uzbek social codes these ideas still remain. It can be noticed from the behavioral codes thought by society to girls.

But the coin has the second side too. Often, boys are not introduced with social norms and manners as closely as girls. They rather tend to form their identity fully by themselves without instruction by adults and elderly. Talking from a personal experience, I know a boy who always gives the way to ladies, and he thinks this etiquette works all the time, not knowing that there is an exception. When he was supposed to go upstairs, he followed the “Ladies go first” rule, being unaware of this fact: “Going up or down stairs, the gentleman always go first. When going down so that, should the woman slip, she will be able to catch at his strong shoulders and, going up, so that his eyes do not linger on her hips and legs.”

And it made me think that most boys are not naturally indifferent or impolite. They have wrong conceptions about things not because there is a malfunctioning part in their brain, but because they are thought differently. When raising a boy some fathers encourage their little toddler to hit aunts or pull their hair, claiming that if the child follows the instruction, he gets rewarded. This may sound just a little naughty child thing and have no effect on the child. But actually, the unconscious mind creates the concept in the little child’s brain that women are weaker and can’t react when treated disrespectfully. This three-year-old naughty behavior of toddler can be called domestic violence if done by a man in family setting.

This indifferent and often aggressive-towards-women behavior is shaped by society. It can be noticed that male audience is more competitive than females, and also against females. That can be resulted by the comments “Don’t act like a girl” and “Are you a girl?” that they received when they failed to do something or didn’t acted super though towards a situation. These comments from the outside makes them to think in a way that being defeated by the representative of the opposite gender makes them look naïve, and when compared with women they should be in higher position with a gap between them and women, so they can’t get compared with the opposite sex.

Girls also in the same way “mis raised”. They feel frustrated when they spend their time “unproductively” to relax. They also feel extremely thankful when their partner did something for them, while those things should be reacted as a common thing. Uzbek women are raised selfless.

Biotransformatsiya- bu organizmdagi kimyoviy reaksiya natijasida moddaning bir kimyoviy moddadan ikkinchisiga o'tishi (o'zgarishi) jarayonini tushunish mumkin.

Organizm uchun oziq moddalar bo'lmagan va organizmga yutish, nafas olish yoki so'rilish yo'li bilan kiradigan barcha kimyoviy moddalar ksenobiotiklar (yunoncha:ksenos=begona) yoki ekzogen birikmalar deb ataladi

Biotransformatsiya omon qolish uchun juda muhimdir, chunki u so'rilgan ozuqa moddalarini (oziq-ovqat, kislorod va boshqalar) tananing normal faoliyati uchun zarur bo'lgan moddalarga aylantiradi. Ba'zi farmatsevtika vositalari uchun bu so'rilgan dori emas, balki terapevtik bo'lgan metabolitlardir.

Masalan, feokromotsitoma, ya'ni o'simtadan kelib chiqqan gipertenziyani yo'qotish uchun beriladigan fenoksibenzamin preparati faol modda bo'lgan metabolitga biotransformatsiya qilinadi. Biotransformatsiya ham muhim himoya mexanizmi bo'lib xizmat qiladi, chunki zaharli ksenobiotiklar va tana chiqindilari kamroq zararli moddalarga aylanadi va tanadan chiqariladi[12].

Tirik to'qimalarda (hujayra ichidagi va hujayradan tashqari) va atrof-muhitda (masalan, tuproq) nanomateriallarning biologik o'zgarishi muqarrar. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari barcha biologik tizimlarning o'sishi uchun asosiy hisoblanadi. Bakteriyalar va tabiiy ravishda paydo bo'lgan nano o'lchamdagi temir oksidi o'rtasidagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari yaxshi tushuniladi. Asosiy nanomaterial yadroning ham, qoplamaning ham biologik vositachilik orqali o'zgarishi mumkin va bu o'zgarishlar nanomateriallarning xatti-harakatlariga, shu jumladan sirt zaryadiga, agregatsiya holatiga va reaktivlikka ta'sir qilishi mumkin. Nanomateriallarning, ayniqsa uglerod asosidagi moddalarning va ularning organik qoplamalarining biologik o'zgarishlari oxir-oqibatda ularning atrof-muhitdagi kontsentratsiyasini susaytirishi yoki transportga ta'sir qilishi mumkin, ammo bu jarayonlar muhim bo'lishi uchun yetarlicha yuqori tezlikda sodir bo'ladimi yoki yo'qligini ko'rish kerak. Tirik hujayralarda (masalan, oqsillar) va atrof-muhitda (masalan, tabiiy organik moddalar, polisaxaridlar) cheksiz miqdordagi biomakromolekulalar mavjud. Bu makromolekulalarning adsorbsiyasi barcha muhitda sodir bo'lishi mumkin. Biologik organizmlar tomonidan qabul qilinganda,

nanomateriallar biomakromolekulalar bilan o'zaro ta'sir qilish orqali o'zgarishi mumkin, ular tashqi yuzalarini qoplaydi va shu bilan o'zgartiradi.

Biotransformatsiyaning o'ziga xos xususiyati uning substrat bilan bog'liq bo'lgan kimyoviy tuzilishga ega bo'lgan mahsulotlarni tayyorlash uchun ishlatilishidir. Ushbu biotransformatsiyalar izolyatsiya qilingan fermentlar yoki mikroorganizmlar (butun hujayra), o'simlik hujayralari va katalitik antibiotiklar tomonidan amalga oshiriladi. Biotransformatsiyaning umumiy maqsadlari selektiv transformatsiya reaksiyalari orqali substrat strukturasi o'ziga xos o'zgartirishdir. Boshqariladigan mikrobial reaksiyalar yoki sun'iy tuzilmalarga biosintetik reaksiyalarni qo'llash orqali substrat strukturasi kengaytirish yo'llari orqali substratlarning kerakli metabolitlarga qisman degradatsiyasi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Griffith F (1928). "The Significance of Pneumococcal Types" *The Journal of Hygiene*. 27(2): 113–59. doi:10.1017/s0022172400031879. PMC 2167760. PMID 20474956.

2. Johnston C, Martin B, Fichant G, Polard P, Claverys JP (March 2014). "Bacterial transformation: distribution, shared mechanisms and divergent control". *Nature Reviews. Microbiology*. 12 (3):181–96.

3. Prozorov A. A., *Geneticheskaya transformatsiya i transfeksiya*, M., 1980; To'raqulov Yo. X. va boshqa, *Umumiy biologiya*, T., 1999.

4. IUPAC Goldbook. 2014. Doi 10.1351/goldbook.B00667 Olingan 14 fevral 2022.

5. Case, Christine; Funke, Berdell; Tortora, Gerard. *Microbiology An Introduction* (tenth edition). Lederberg, Joshua (1994). "The Transformation of Genetics by DNA: An Anniversary Celebration of AVERY, MACLEOD and MCCARTY (1944) in Anecdotal, Historical and Critical Commentaries on Genetics" *Genetics*. 136 (2): 423–6. doi:10.1093/genetics/136.2.423. PMC 1205797. PMID 8150273

6. Sobirova M. Determination of stimulant properties of local rhizobacteria-based bioproducts against *Cynara scolymus* L. // *The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering* // . 2022. – 4 (02), p. 26-30.

7. Sobirova M., Murodova S. Effects of biopreparates on *cynara scolymus* L., micro and macrolelements, and quantity of flavonoids // *In E3S Web of Conferences* // . 2021. Vol. 258.

8. Собирова М., Муродова С. Технология получения элиситора, эффективно влияющего на биологические свойства *Cynara Scolymus* L-M.: Научное обозрение. биологические науки, 2022. №1. с. 68-72

9. Муродова С. С., Хўжаназарова М. Қ., Собирова М.В. PGPR микроорганизмлардан биопрепарат сифатида фойдаланишда иммолизациянинг

истiqbollari jihatlari// “O‘zbekistonda ilm-fanning rivojlanish istiqbollari” xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. 2022 yil 30 noyabr 534-543 bet.

11.en.wikipedia.org/wiki/Transformation\_(genetics)

12.www.nogr.org/jour/article/view/387/387

13. www.toxmsdt.com/121-introduction-to-biotransformation

14.ilmiy.bmti.uz/blib/files/3/Biotexnologiya%20asoslari.pdf

15.lib.jdpu.uz/storage/uploads/files/Mikrobiologiya%20imunnologiya%20virus ologiya.I.Muhamedov.pdf

## DIDAKTIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING INNOVATSION KASBIY MAHORATINI OSHIRISH.

**Saydullayeva Shahlo Sobirovna**

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbga bo'lgan e'tiborini kuchaytirish, didaktik texnologiyalarni dars jarayonida keng qo'llash yo'llari, zamonaviy ta'lim texnologiyalarni tadqiq qilish, dars jarayoni samaradorligini oshirish usullari yoritib beriladi.*

**Tayanch so'z va tushunchalar:** *didaktik texnologiya, innovatsion kasbiy mahorat, didaktik o'yinlar.*

Bugungi kunda , o'qituvchilarning bilim saviyasini oshirish, ularning kasbiy faoliyatini kengaytirish, o'z-o'zini rivojlantirish bo'yicha bir qancha ishlar olib borilmoqda. Bundan tashqari, rivojlangan davlatlarning ta'lim jarayonini tadbiriq qilish, ularda qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim texnologiyalar bilan tanishish va ularni keng qo'llash chora-tadbirlari ko'rib chiqilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-139-sonli farmoniga muvofiq 2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturda ilg'or xorijiy tajriba asosida ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilarning ilg'or tajribasi va faoliyatida qo'llagan zamonaviy metodikalarni ommalashtirish, ilg'or tajribaga ega bo'lgan va faoliyatida zamonaviy metodikalarni qo'llaydigan o'qituvchilarni aniqlash kabi bir qancha yo'nalishlar keltirib o'tilgan. Qo'shimcha tarzda, " O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 6- nayabrdagi " O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6018-son farmoni va mazkur farmon ijrosini ta'minlash maqsadida 2020-yil 6-noyabrda qabul qilingan "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida" gi PQ-4884-son qarorida mamlakatimiz ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillahtirish, jamiyatimizda o'qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo'lgan hurmat va e'tiborni yanada oshirish, o'qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish, tizimda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish maqsadida O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya hamda ilm-fan sohalarining yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi"(1-93).

Har bir sohada ma'lum bir talablar bo'lgani kabi, Zamonaviy pedagog bo'lishning o'ziga munosib bir qancha talablari ham mavjud. Ulardan biri "rivojlanish"dir. Ta'lim jarayonida ham bir qancha rivojlanish bosqichlari mavjud. Biz boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan qaraydigan bo'lsak, ular o'zining faoliyat jarayonini rivojlantirishi uchun, albatta, zamonaviy chet el ta'lim texnologiyalaridan foydalanishi lozim. Buning uchun, zamonaviy o'qituvchi-pedagog zamon bilan hamnafas bo'lishi, kreativ fikrlaydigan, har bir kirib kelgan yangilikka o'zining shaxsiy fikrini bildira

oladigan, o'z ustida tinimsiz ishlab, o'zini-o'zi tanqid qila oladigan va rivojlantira oladigan bo'lmog'i lozim. Jumladan, zamonaviy pedagog didaktik o'yinlarni qo'llash orqali mahoratini oshirib borishi mumkin. Ta'lim jarayonida didaktik o'yinlarning ahamiyati beqiyosdir. Didaktika atamasi 17-asrda ilk bor o'qitish va ta'lim jarayoni haqida asarlar yaratgan olimlar tomonidan qo'llanila boshlangan. Didaktika so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, 'o'rgatuvchi", "ta'lim beruvchi" degan ma'nolarni anglatadi. Keyinchalik didaktikaga ta'lim nazariyasi haqidagi fan sifatida qaraladigan bo'ldi. Didaktik o'yinlarni maktabgacha ta'lim tizimida qo'llanilishga doir qo'llanmalarni F. Fribil va M. Montisorilar ishlab chiqqan bo'lsa, O. Dikroli boshlang'ich ta'lim bo'yicha ishlar olib borgan. Didaktik texnologiyalarning asosiy maqsadi bolani ham jismonan ham manan yetuklikka ko'tarish va ularni har bir fanga qiziqishini uyg'otish hisoblanadi. Didaktik o'yinlarni qo'llash orqali o'quvchi ijtimoiy va moddiy olamni bilishi va anglashi asosida emotsional-hissiy va intellektual-axloqiy rivojlanib boradi. O'yin vositasida bolalar tevarak-atrofni, borliqni va hayotni o'rganadi va his qiladi.

O'quvchilarning bilim olish faoliyati bilan o'yin faoliyati uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar hisoblanadi. O'quvchilarning bilimni rivojlantirishda turli o'yinlardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlar boshlang'ich ta'limdan keyingi bosqichlarida ham bolalarning bilish faoliyatini kengaytirishga turtki bo'ladi. Didaktik o'yinlarning eng ustuvor vazifasi bolalarning diqqatini dars jarayoniga jalb qilish hisoblanadi. Didaktik o'yinlarning o'quvchi hayotidagi vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- o'yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ — muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi;
- shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;
- hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengish va mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi;
- o'yin jarayonida ijtimoiy normalaiga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;
- shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;
- insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi;
- o'yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi".(2-115)

Yuqorida keltirilgan didaktik o'yinlarning vazifalaridan biri shaxsning muloqotga kirishish(kommunikativ) madaniyatini egallashga yordam berishidir. Ya'ni o'quvchilarni dars jarayonida erkin fikrlay olishini, fikrini to'liq yoritib bera olishini, bundan tashqari, so'z boyligi kengayishini ta'minlab beradi. Didaktik o'yinlar o'quvchilarda axloqiy ko'nikmalarni shakllantirish bilan birga jismoniy va estetik ko'nikmalarni ham yuzaga chiqaradi.

Didaktik o'yinlarni aqliy, harakatli hamda aralash turlari mavjud. Didaktik o'yinlarni qo'llashdan avval o'qituvchi tomonidan o'yinning mavzu bayoniga munosibligi, uning yo'naltiruvchi va ta'limiy xususiyatlari, o'quvchilarning yoshiga, bilim saviyasiga mosligi, o'yinlarni o'tkazish vaqti aniq bo'lishi, uning maqsadi va ahamiyati belgilanishi ko'rib chiqilinadi. O'yin barcha talablarga javob bergandan so'nggina uni qo'llash lozim. Jumladan, didaktik o'yinlarni tanlashning bir necha tavsifiya etilgan bosqichlari mavjud:

1. Ishtirokchilarning tarkibi bo'yicha- o'smirlar, katta yoshdagilar, o'g'il bolalar, qiz bolalar;

2. Qatnashuvchilarning soni bo'yicha- kichik guruh, katta guruh, yakka tarzda, juft holda, jamoalar, sinflar aro;

3. o'yin jarayoni bo'yicha- harakatli, fikrlash orqali, topog'onlik va turli musobaqalarga yo'naltirilgan o'yinlar;

4. vaqt meyori bo'yicha- mashg'ulotning reja bo'yicha ajratilgan qismi, g'olib aniqlanguncha olib boriladigan o'yinlar;

"Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan didaktik o'yinlar 2 xil tasnifga egadir.

Mazmuniga ko'ra: tinch o'yinlar, harakatli o'yinlar, aralsh turdagi.

Amalga oshirish shakliga ko'ra: musobaqa o'yinlar, sahnali o'yinlar.

Didaktik o'yinlarni xilma-xil tarzlarda tashkil qilish mumkin. Qo'g'irchoqlar, o'yinchoqlar, rasmlar va tarqatmalar, turli geometrik shakllardan ham foydalanish mumkin. Didaktik o'yinlar maqsadiga ko'ra 4 omilni o'z ichiga oladi: 1; O'yinning vazifasi. 2; O'yinning harakati. 3; O'yinning qoidasi. 4; O'yinning yakuni."(3-7)

Didaktik o'yinlar haqida sharq mutafakkirlarining fikrlarini ham keltirib o'tishimiz mumkin. Garchi olimlarning jumllarida "didaktik o'yin" atamasi aynan kelmasa ham, dars o'tishning usullari haqida tavsifiyalar keltirilgan. Jumladan, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad al-Farg'oniy, Munis, Alisher Navoiy kabi olimlarning o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar, ta'lim jarayoning sifatini oshirish kabi qarashlari ta'lim taraqqiyotida o'ziga xos bosqichni tashkil etadi. Alisher Navoiy bobomizning "Hayrat ul-abror" asarining bir necha boblari ta'lim-tarbiya va odob-axloq masalalariga bag'ishlangan. "Navoiy bolalarni ilmni puxta egallashga chaqirib, buyuk pedagog hamda murabbiy sifatida ularni tarbiyalash va o'stirish yo'llarini ko'rsatadi"(4- ). Abu Rayhon Beruniy o'quvchilarga bilim berish jarayonida quyidagilarni tavsifiya qilib o'tgan:

"-o'quvchini zeriktirmaslik;

-bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik;

-uzviylik, izchillik;

-tahlil qilish va taqqoslash;

-ma'lumdan noma'lumga, yaqindan uzoqqa, soddadan murakkabga qarab borish;

-takrorlash;

-yangi mavzuni ko'rgazmali bayon etish va hakazolarga e'tibor berish kerak ekanligini uqtiradi".(5- )

Hozirgi kunda zamonaviy didaktik metodlarning sanog'i yo'q desak, mubolag'a bo'lmaydi. Shu metodlardan biri "Oilaviy munozara" hisoblanadi. Bu didaktik o'yinni quyidagi holatda qo'llashimiz mumkin:

O'quvchilarni 2ta kichik guruhlarga bo'lib olamiz, ular aylana tarzda o'tirib olishadi. Ularni oila nomlari bilan nomlaysiz. Masalan, Bahromovlar hamda Ilhomovlar oilasi. Bir o'quvchi guruh boshi, ya'ni oila "otasi" bo'ladi. Ikkala oiladan ham "otalarni" yonimizga chaqirib, ularga mavzuga oid qiyin va qisqaroq ma'lumotlar yozilgan varoqni beramiz. "Otalar" ma'lumotlarni 2 daqiqa ichida yaxshilab o'qib, eslab qolib, o'z "oilalariga" yetkazib borishlari kerak. Ma'lumotni yetkazish uchun esa 3 daqiqa vaqt bering. 3 daqiqadan so'ng oilalar navbat-navbat bir-birlariga o'sha mavzu yuzasidan savol berishadi. Bir savolga faqat bir oila a'zosi javob beradi. "Otalar" kim javob berishini belgilab berishadi, o'zlari esa savol-javobda ishtirok etishmaydi.

Keyin esa "ota" qariydi, katta farzand xuddi "ota" kabi informatsiya yetkazib kelishni bo'yniga oladi. Shu tarzda 3-5 marotabagacha takrorlashingiz mumkin. Eng ahamiyatli joyiga to'xtaladigan bo'lsak, biz hozirda ta'lim orqali tarbiya berishimiz lozim. Bu metodning tagida juda katta tarbiyaviy ma'no bor. Shular haqida ham o'yin so'ngida o'quvchilarga gapirib o'tamiz. Bu metod o'quvchilarning xotirasini rivojlantirishga, ziyrakligini oshirishga, bundan tashqari, o'g'il bola o'quvchilarda ma'suliyat hissini singdirishga turtki bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1."Bo'lajak boshlang'ich o'qituvchilarining innovatsion kasbiy faoliyatini oshirish" (1-94)
- 2."Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat"(Toshkent "IQTISOD-MOLIYA" 2009).
- 3.Mamasoli Jumaboyev "Bolalar adabiyoti" ( "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent, 2013)
- 4.Abu Nasr Farobiy va Abu Rayhon Beruniylarning ta'limiy axloqiy qarashlari( 20.09.2019).
- 5.S.Qurbonov "Didaktik o'yinlar" Urganch-2011.

## **“BIR MAKON – BIR YO’L” LOYIHASI – ZAMONAVIY “BUYUK IPAK YO’LI” SARI.**

**Jabborov Fazliddin Maxsidinovich**

*Ozbekiston Respublikasi IIV Samarqand akademik*

*Litseyi tarix fani o’qituvchisi*

Tarixdan bizga ma’lumki, miloddan avvalgi 138-yilda Xitoy imperatori U-Di mamlakat xavfsizligini shimoliy chegaralarda yashovchi xunn qabilalaridan himoya qilishda ittifoqchi topish, shuningdek g’arbdagi qo’shni mamlakatlarni o’rganish, o’z armiyasi qudratini yanada oshirish uchun “samoviy otlar”ni olib kelish maqsadida amaldor Chjan Szyanni O’rta Osiyo, xususan, Dovon (Farg’ona), Qang’ davlatlariga elchi sifatida yuborgan edi. Mazkur elchilikning Dovon davlatiga qilgan mashaqqatli safari amalga oshirilgan yo’l – “Buyuk ipak yo’li”ning shakllanishida asos bo’lib xizmat qildi. Mazkur yo’ldan ipak, bronza mahsulotlaridan iborat ilk tuya karvonining Fa’rg’ona vodiysiga kelishi miloddan avvalgi 121-yilda ro’y bergan<sup>5</sup>.

Keyingi taraqqiyoti davomida 12 ming kilometrni tashkil etgan mazkur savdo yo’li Xitoy, Markaziy Osiyo mamlakatlari, o’rta va yaqin Sharq, Kichik Osiyo mamlakatlarining savdo-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotida muhim vosita rolini bajardi. Buyuk geografik kashfiyotlar tufayli dengiz savdo yo’llari ahamiyatining oshishi, shuningdek, ipak yo’li bo’ylab joylashgan davlatlardagi ijtimoiy-siyosiy, harbiy vaziyatning doimo ham barqaror bo’lmasligi kabi omillar XVI asrga kelib Buyuk ipak yo’lining inqirozga uchrashiga sabab bo’ldi.

XX asrning oxiriga kelib Markaziy Osiyoda mustaqil davlatlarning shakllanishi, xususan, Vatanimizning mustaqil taraqqiyot yo’liga qadam qo’yishi, faol mustaqil tashqi aloqalarning rivojlanishi o’tmishda iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashda muhim o’ringa ega bo’lgan mazkur savdo yo’lini zamonaviy shaklda qayta tiklash borasida ishlar amalga oshirila boshlandi. Albatta bu jarayondan mintaqada joylashgan davlatlarning ham manfaatlari nomoyon bo’lishi tabiiy.

Bugungi kunda Xitoy Xalq Respublikasi rahbariyati tomonidan ilgari surilgan “Bir makon – bir yo’l” loyihasi Buyuk ipak yo’lini zamonaviy shaklda tiklash jarayoniga misol bo’la oladi.

Bir makon bir yo’l tashabbusi – BRI (Belt and Road Initiative) 2013-yil sentabrda Qozog’iston poytaxti Ostona shahridagi Nazarboyev Universitetida XXR rahbari Szi Szinpin tomonidan ilgari surilgan. Ushbu loyihaning maqsadi Osiyoni Yevropa, Afrika va boshqa mintaqalar bog’lovchi savdo va infratuzilmalar tarmog’ini yaratish, Xitoy hukumati tomonidan 150 ga yaqin davlat va xalqaro tashkilotlarga sarmoya kiritish, o’zaro iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Loyiha Xitoy yetakchisi Si Tszinpin tashqi siyosatining markaziy qismi bo’lib, ba’zi mutaxassislar tomonidan ikkinchi jahon urushidan keying AQShning Yevropada qo’llagan “Marshall rejasi”

<sup>5</sup> Ольга Дорохина “Каким был Великий шелковый путь”. “Kommersant” 03.09.2015.



loyihasiga qiyoslangan. 2020-yil avgust holatiga ko'ra, 149 mamlakat "Bir makon-bir yo'l" tashabbusiga a'zo bo'lganlar ro'yxatiga kiritilgan.

Loyihaning bosh maqsadi – Yevroosiya davlatlarining geosiyosiy va iqtisodiy makonini quyidagi masalalarni yechish orqali kengaytirish:

- savdo va iqtisodiy aloqlarni mustahkamlash;
- iqtisodiy hamkorlikni jadallashtirish;
- yirik infratuzilma obyektlari, birinchi galda transport tarmoqlarini hamkorlikda

bunyod etish;

- istiqbolli va o'zaro manfaatli taraqqiyotni ta'minlash uchun Sharqiy, Janubiy va G'arbiy Osiyoda joylashgan davlatlarni bog'lovchi transchegaraviy yo'llar tarmoqlarini optimallashtirish;

- investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirish;
- Turizm sohasida hamkorlikni kengaytirish;

"Makon" („Kamar“) "Ipak yo'li iqtisodiy Kamari"ning qisqartmasi bo'lib, G'arbiy mintaqalarning mashhur tarixiy savdo yo'llari bo'ylab dengizga chiqmaydigan Markaziy Osiyo orqali avtomobil va temir yo'l tashish uchun tavsiya etilgan quruqlik yo'nalishlarini nazarda tutadi; „Yo'l“ esa "XXI asr dengiz ipak yo'li"ning qisqartmasi bo'lib, Janubiy-Sharqiy Osiyo orqali Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq va Afrikaga olib boradigan Hind-Tinch okeani dengiz yo'llarini nazarda tutadi.

Aniqrog'i, reja ikkita infratuzilmali loyihami o'z ichiga oladi: Biri – "XXI asrning dengiz ipak yo'li", ya'ni, Xitoy bandargohlarini Singapur, Malayziya, Indoneziya, Avstraliya bandargohlari bilan bog'laydi. Ikkinchisi "Iqtisodiy kamar" – Yevroosiyo hududida yuqori tezlikka ega bo'lgan transport tarmog'ini yaratishga qaratilgan. Loyihani amalga oshirish maqsadida Xitoy hukumati 2015-yil fevralda 40 milliard \$ kapitalga ega bo'lgan "Ipak yo'li fondi"ni tashkil etdi.

Belt and Road Initiative infratuzilma investitsiyalariga misollar qatoriga portlar, osmono'par binolar, temir yo'llar, yo'llar, ko'priklar, aeroportlar, to'g'onlar, ko'mir bilan ishlaydigan elektr stantsiyalari va temir yo'l tunnellarining ko'paytirilishi kiradi.

Tashabbus 2018 yilda Xitoy Konstitutsiyasiga kiritilgan. O'shanda Si Szinpin ma'muriyati tashabbusni „mintaqaviy aloqalarni kuchaytirish va porloq kelajakka intilish“ deb atadi. Loyiha 2049-yilda yakunlanishini maqsad qilgan bu Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) tashkil topganining 100 yilligi munosabatiga bog'liq.

Jahon banki tomonidan o'tkazilgan ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Bir makon bir yo'l tashabbusining 149 ishtirokchi davlatdagi savdo oqimlarini 4,1 foizga oshirishi, shuningdek, global savdo xarajatlarini 1,1 foizdan 2,2 foizga qisqartirishi va Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi rivojlanayotgan mamlakatlarning yalpi ichki mahsulotini oshirishi mumkin. Bu ko'rsatkich o'rtacha 2,6 dan 3,9 foizgachani tashkil qilishi kutilgan. Londonda joylashgan CEBR maslahatchilarining fikriga ko'ra, Bir makon bir yo'l tashabbusi 2040 yilga kelib jahon yalpi ichki mahsulotini yiliga 7,1 trillion dollarga oshirishi mumkin va „foydalar keng tarqaladi“. CEBR

shuningdek, agar global infratuzilma tashabbusi rivojlanib, jadal rivojlansa, loyiha boshqa mamlakatlarni qo'shilishga jalb qilishi mumkin degan xulosaga kelgan.

Xitoy tomonining avvalo iqtisodiy maqsadlarga qaratilgan loyihalari Osiyo-Tinch okeani mintaqasida o'tgan asrning o'rtalari va ikkinchi yarmida AQSh tomonidan tashkil etilgan mintaqaviy tashkilotlar manfaatlari, birinchi galda qo'shma shtatlarning manfaatlariga zid kelish ehtimoli yuqori. Shu bois, amerika siyosiy doirasi, matbuoti loyiha haqida salbiy ruhdagi axborotlar bilan chiqishmoqda.

“Bir makon – bir yo'l” tashabbusi ilgari surilgan vaqtdan boshlab Xitoy va Markaziy Osiyoning 5 mamlakati o'zaro hamkorlikni yanada kengaytirdi hamda qator tarixiy natijalarga ham erishdi. Xususan, 2023-yilning dastlabki choragida Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdosi 37,4 foizga o'sdi. 2022-yilda savdo ayirboshlash o'ttiz yil oldingi ko'rsatgichga nisbatan 100 marta ko'payib, 70,2 milliard \$ni tashkil etdi<sup>6</sup>.

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyati, mahsulot eksporti hajmini yanada kengaytirish yo'lida to'g'ridan-to'g'ri dengiz yo'lga chiqish imkoniyatining mavjud emasligi cheklovchi omil bo'lib kelmoqda. Hukumatimiz tomonidan bu borada o'tgan yillar davomida Afg'oniston orqali Pokistonning Gvadar bandargohiga chiqishni ta'minlovchi temir yo'l qurish tashabbusi ilgari surilib kelinmoqda. Bu tashabbus “Bir makon – bir yo'l” loyihasida ham o'z aksini topgan. “Bir makon – bir yo'l” loyihasidagi temir yo'llar infratuzilmasini kengaytirish yo'lidagi muammolardan biri temir yo'llar standartlaridagi farqlardir. Xususan, temir yo'l relslari oraliqidagi masofa Hindiston, Ispaniya, Argentina, Chili kabi davlatlarda 1676 mm; Rossiya, O'zbekiston va shu kabi postsovet davlatlarida 1520 mm; AQSh, Kanada va Yevropaning aksariyat davlatlarida 1435 mm; Yaponiya, Indoneziya va Janubiy, Sharqiy Osiyoning ko'pgina davlatlarida 1067 mm ni tashkil etadi<sup>7</sup>.

XXI asrga kelib mamlakatlarning barqaror taraqqiyot yo'lidan og'ishmay rivojlanib borishi yo'lida to'siq bo'ladigan ichki va tashqi, tabiiy va inson omili bilan bog'liq muammolar, resurslar bilan bog'liq muammolar mavjudligicha qolmoqda.

Bunday muammolarning yechimi sifatida ko'pchilik davlat arboblari, mutaxassislar dunyo yoki muayyan mintaqa davlatlarining hamkorlik asosida integratsion jarayonlarga yanada faol kirishishi muhimligini ta'kidlashgan. Hamdo'stlik, hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish, kengaytirib borishda xalqaro huquq normalari, shuningdek, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikka amal qilinishi kafolat bo'lib xizmat qiladi. XXR tomonidan ilgari surilayotgan geosiyosiy ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni amalga oshirishda ham ushbu tamoyillarga to'liq amal qilinishi shu kabi loyihalarning istiqbolli ekanligini ko'rsatadi. Zamonaviy “Buyuk ipak yo'li”, “Bir makon – bir yo'l” loyihalari nafaqat qadimiy savdo yo'li mamlakatlari, balki Yevropa, Afrika mamlakatlari bilan ham integratsiyalashuvni ta'minlaydi.

<sup>6</sup> Цзун Шукан “Китай и страны Центральной Азии совместно продвигают инициативу "Один пояс и один путь". Российская газета. 18.05.2023.

<sup>7</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Temir\\_yo%CA%BBl\\_transporti](https://uz.wikipedia.org/wiki/Temir_yo%CA%BBl_transporti)

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Цзун Шукан “Китай и страны Центральной Азии совместно продвигают инициативу "Один пояс и один путь"// Российская газета. 18.05.2023.
2. Ольга Дорохина “Каким был Великий шелковый путь”// “Kommersant” 03.09.2015.
3. Инициатива совместного строительства «Одного пояса, одного пути»: прогресс, вклад и перспективы. Канцелярия руководящей
4. Линь Сюэ. (2016) Взаимосвязь стратегии «Один пояс — один путь» и сферы туризма // «Исследования экономического развития». 2016, № 11, часть 2. — С. 173–174.
5. <https://uz.wikipedia.org>

---

**LANGUAGE LEARNING, TEACHING AND ASSESSMENT IN PROFESSIONAL  
SCHOOLS. APPROACHES TO THE METHODS OF A TARGET LANGUAGE**

**Akramjonova Nargiza Dilshodbek daughter**

*English teacher of the vocational school No. 2 of the Oltiariq district*

**Abstract:** *Vocational training is a complex and multifaceted process, based on which the opportunities for successful work in a particular profession, personal orientation, professional knowledge, skills, qualifications and professional qualities, work experience are integrated. The effectiveness of innovative methods and technologies in its formation today is great. Students' knowledge and skills are developed through the use of innovative methods in the educational process in order to improve the professional skills of students. In this article, I want to highlight the role of innovative methods and the importance of modern technology in professional development.*

**Keywords:** *innovative methods, information technology, professional skills, educational effectiveness, pedagogy.*

The Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan adopted a resolution "On measures for further development of computerization and introduction of information and communication technologies" in order to improve the professional skills of students in the educational process and to improve the skills and qualifications of teachers.

Adoption of Resolutions No. 200 of June 6, 2002, No. 25 of February 16, 2006 "On Further Improving the System of Retraining and Advanced Training of Teachers". The use of innovative information technologies in the educational process will increase the effectiveness of teaching methods, change the work of teachers, improve their pedagogical skills, improve the pedagogical system effective effect on structural change.

The social order, conditions, and politics of society always determine the work and purpose of a comprehensive school. The goals of teaching foreign languages vary depending on the progress and development of society. In secondary schools, there are goals for teaching foreign languages that affect the course correction of foreign language teaching methods, and production. In the 40-50s of the last century, the leading goal was to teach listening comprehension in schools, while oral speech was just being formed. And now they change depending on the era, the demands of society. The goals of teaching a foreign language have their own character, which determines the content, means, methods and principles of teaching.

The main purpose of teaching a foreign language is the practical development of a foreign language. I.V.Rakhmanov mentor L.V. Developing Shcherba's thought, in his article "some issues of teaching a foreign language in secondary schools" he defines the main purpose of teaching a foreign language. He believes that the goals of teaching a

foreign language are to create general education, education and communication, as well as to use the acquired skills and abilities for other purposes.

The very first of the goals of teaching a foreign language is practical. In the methodology of other disciplines, there are educational, educational, developmental goals, a practical goal, i.e. communication is a phenomenon inherent only in foreign languages.

A communicative, communicative, or practical purpose refers to teaching students to perceive the opinions of others verbally and in writing and to express their opinions verbally and in writing.

Thus, teaching foreign languages sets itself the task of: 1) practical or communicative, 2) general education, 3) educational, 4) developmental goal. General education, educational, and developmental goals arise when implementing a communicative goal.[2.B.191]

Now let's focus on each goal separately.

#### 1. Communicative (practical) purpose.

To this end, students develop skills and competencies in English language material. Students should be able to master vocabulary, grammar, pronunciation material on their own. The skills of oral English speech, reading, and writing are being formed.

#### 2. The purpose of providing general education.

This goal is understood as the further development of students' thinking, the provision of information in English, a deeper understanding of the English language, expanding the horizons of students by gaining new knowledge in the field of English, as well as understanding and information about the history, literature and culture of the people of the country whose language is affected. Students' understanding, development of thinking, and broadening of horizons occurs at the expense of a foreign language - English or English.[3.B.90-91]

3. Educational purpose. This goal provides for international, moral and aesthetic education in a foreign language lesson-English, as well as education of attitude to work.

Of course, they are carried out through English language material, analyzing the topic of English speech, the content of English texts.

#### 4. A developmental goal.

This goal defines the ways of learning, teaching students personal knowledge. He develops the skills of linguistic analysis of facts, generalization, independent conclusion, listening, and speech action. It develops imagination, the ability to form speech situations, logical connection in speech, the ability to think independently, the ability to form the meaning of words, independent work with a dictionary, manuals, preparation for elective classes, independent preparation for extracurricular English classes, their conduct. The above-mentioned goal always complements each other.[4.B.75]

In the professional skills of a teacher based on modern information technologies;

- simplifies the complex process of developing the technological basis of education at the level of modern requirements;

- special skills and competencies are formed to organize the teaching process on the basis of modern innovative technical means;

- Due to the openness of distance learning courses, there is a need for quality control and quality control of training materials;

- students' independent activity in the educational process improves, the effectiveness of the teaching process passes from teacher to student;

- Increases the organization and personal participation of students in the organization of the educational process; [5]

- The use of modern communication technologies provides feedback to each student in the pedagogical activity of the teacher.

Today, the teacher must take into account the capabilities and needs of students in the educational process. The system of education and upbringing promoted by the teacher should be person centered, that is,

differentiated, taking into account the different characteristics and qualities of the individual. [4]

Any system of education and upbringing is formed and developed in a certain social, scientific, technical, economic, cultural and, finally, political environment. Socio-economic factors are the top priorities of this environment.

Scientific and technological progress, cultural and political environment can develop or slow down socio-economic changes. The education system serves to fulfill the main tasks of socio-economic and cultural development of the society, as secondary schools and higher education institutions prepare people for economic, cultural and political activities.[3]

That is why the teacher of educational institutions plays an important role as a cornerstone of the educational process. It is recognized by pedagogical scientists that one of the most important indicators of the use of such technologies in the educational process is the improvement of the ability to use different methods in modern educational institutions on the basis of innovative technologies. In particular, U.Sh. Begimkulov stressed the need to create a computer information environment in educational institutions and a database capable of meeting modern requirements, the development of hypertext and multimedia, imitation in teaching, communication systems, input, systematization, storage of necessary information using computer technology and suggests creating a database that is recommended for use. Therefore, in order to develop the knowledge, skills and competencies of teachers using innovative information technologies, as well as to improve the pedagogical skills of teachers in accordance with modern requirements, initiates the organization of distance learning courses.[2]

When using innovative technologies, the teacher can perform a number of tasks depending on its content. Innovative technology-based methods with active use perform the following main didactic functions:

- develops students' interest in science through the use of multimedia technology;
- At the same time, due to the interactivity of education, students' thinking skills are activated and the effectiveness of learning materials is increased;
- is important in that it allows you to model and visualize processes that are difficult or complex to demonstrate in real situations;
- Assimilation of learning materials are effective not only according to the level, but also according to the level of logical perception achieved by students;
- Provides the opportunity to organize distance learning not only for students who are learning or online education, but also for students who miss classes without a reason;
- Provides students with the opportunity to carry out specific research by searching for, finding, and answering problematic material through independent research;
- Provides opportunities for students to master a new topic, solve examples, essays, essays, self-study of educational materials, selection and analysis of information and data. [7]

The clear orientation of a student's professional skills is determined by his / her worldview, interest in the pedagogical profession, and ability to engage in it. Researchers (N.V. Kuzmina, G.A. Murray, A. Adiner, N.A. Aminov, etc.) study the motives of students' desire to improve their professional skills and divide them into three types:

- Motives indicating the existence of compelling reasons;
- Motives based on interest in the study of certain disciplines;
- Motives that reflect the need to strive to communicate with people.

If these aspects are analyzed, the validity of career choice motives is not only one of the important subjective factors in reaching the peak of pedagogical activity, but also has a significant impact on the overall state of vocational training. 20 In the process of preparing future professionals for professional activity, it is important that they have the personal, spiritual, moral, psychological and physical qualities necessary for future professional activity and their development indicators. [10]

After all, any professional activity requires a person to possess certain qualities.

In describing their professional activities, most scholars refer to N.V. Kuzmina and Z.F. They rely on Yesarova's research.

They distinguish the following components in the professional training of educators:

1. Knowledge (possessing gnostic ability).
2. Constructiveness (ability to design).
3. Communicativeness.

4. Organization. Cognition (Greek —gnosis|| - —knowledge||) refers to the student's field of knowledge, which includes in-depth knowledge of the subject, communication, psychological characteristics of the specialist, knowledge of self-awareness. [7]

Constructiveness (the ability to design) - this means a separate design of the activities of the specialist, taking into account the personal activities and educational goals. Communicativeness is a special feature of a specialist, which involves interacting with people and colleagues. In this case, the effectiveness of professional activity depends on its communication. Communication should be didactic. Organization is the ability of a specialist to organize his / her personal activity, as well as methodologically correct activity, which is one of the important conditions for success in the educational process. The student's organizational skills are manifested, firstly, in the ability to organize the team, in which to unite the team, and secondly, in the ability to properly organize their personal work. It should be noted that these qualities, which should be reflected in the professional image of the specialist, are important not only in their interactions with colleagues, but also in their relationships with others.

#### REFERENCES:

1. Kholikov A. Pedagogical skills. Study guide. Tashkent. - ECONOMICS, 2010  
Усманова, Н. А. (1993). Формирование профессиональной готовности студентов педвуза к работе с родителями учащихся профессионально-технических училищ (на материалах Узбекистана).
2. Abdullayevich, I. R., & Arifjanovna, U. N. (2021). The Role of Information Technology in the Development of the Education System. Design Engineering, 17038-17041.
3. Bakiyevna, R. G. (2023). Innovations in the Methodology of Teaching the Russian Language. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(3), 283-286.
4. Bakiyevna, R. G. (2021). Use of Innovative Methods In Teaching The Russian Language To Students Of The National Group Of Nonphilological Universities. European Scholar Journal, 2 (5), 129-130.
5. Раимжанова, Н. И., & Тожахмедова, И. Г. (2016). THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES. Science Time, (11 (35)), 400-402.
6. Khakimjonovna, B. P., & Sergeeva, M. G. (2023). PRINCIPLES OF COHEERENT SPEECH AND ITS PRACTICAL REFLECTIONS. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 9(4), 163-166.



7. Abdug'afurovich, R. B. (2022). Innovation Technologies in Teaching English. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(6), 288-291.

## SHAXSNING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK - XUSUSIYATLARI

**Po'latova Shahnoza Ikrom qizi**

*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport  
universiteti Farg'ona filiali o'qituvchisi.*

**Annotatsiya :** *Mazkur maqolamizda shaxsning individual xususiyatlari, his – tuyg'ulari, harakteri, qobiliyatlari, insonning vaziyatlarini kelib chiqishi, temperamentlari, kishilarni fel-atvorini usullari, temperament tiplarini psixologik tavsifi, inson xususiyatini guruhlari haqida ma'lumot berib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *temperament, individual, shaxs, sezitivlik, reaktivlik, faollik, refaollik, reaksiya tempi, ekstravertlik va intravertlik, sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik.*

**Аннотация:** *В данной статье мы предоставили информацию об индивидуальных особенностях человека, чувствах, характере, способностях, происхождении человеческих ситуаций, темпераментах, способах поведения человека, психологическом описании типов темперамента, группах характеристик человека.*

**Ключевые слова:** *темперамент, личность, личность, чувствительность, реактивность, активность, реактивность, время реакции, экстраверсия и интроверсия, сангвиник, холерик, флегматик, меланхолик.*

**Annotation:** *In this article, we have provided information about the individual characteristics of a person, feelings, character, abilities, the origin of human situations, temperaments, methods of human behavior, psychological description of temperament types, groups of human characteristics.*

**Keywords:** *temperament, individual, personality, sensitivity, reactivity, activity, reactivity, reaction time, extraversion and introversion, sanguine, choleric, phlegmatic, melancholic.*

Shaxsning individual xususiyatlari haqida gapirilganda uning tug'ma biologik xususiyatlariga alohida e'tibor berisimiz lozim. Atrofdagi kishilarni kuzatganda ular his-tuyg'ularni namoyon qilishida, harakat tezligida farq borligi seziladi. Birovlar tajang, harakatchan va quvnoq bo'lsalar ham ularning tuyg'ulari beqaror bo'ladi. Boshqalari yuvosh, zararsiz bo'ladilar. Uchinchilari esa biror narsadan tez ta'sirlanadilar, lekin o'z tuyg'ularini yashiradilar, passiv bo'ladilar. Oliy o'quv yurtiga qabul qilinganini eshitgan bolaning o'zini tutishi yoki hayotning og'ir sinovlari paytida odam beixtiyor namoyon qiladigan reaksiyalari uning tempera-mentini hosil qiladi. Bu ikkala vaziyatni biri og'ir-bosiqlik bilan, boshqasi esa o'zini yo'qotgudek darajada hayajon bilan boshdan kechiradi.

His-tuyg'ularning paydo bo'lish tezligi va kuchida, hamda kishining umumiy harakatchanligida namoyon bo'ladigan individual-psixologik xususiyatlar majmui

temperament (lot. temperamentum – aralashma, qismlar nisbati) degan ma’noni bildiradi. Qadim zamonlarda kishidagi tuyg’ular va harakatlarning xususiyatlari uning tanasidagi suyuqliklarning miqdoriga, ularning nisbatiga bog’liq deb hisoblanadi. Qadimgi grek shifokori va tabiatshunosi Gippokrat taxmin qilganki, bir xil odamlarning organizmida safro (shole) ko’proq bo’ladi, bunday

kishilarni xoleriklar; boshqalarda qon (sanguinis) ko’p bo’ladi, ularni sangviniklar; uchinchi bir kishilarda shilliq narsa (phlegma) ayniqsa ko’p, ularni flegmatiklar; to’rtinchi bir kishilarda qora safro ko’p miqdorda bo’lib, ularni melanxoliklar deb nomlaganlar.

Ko’pgina kishilarning shaxsi faqat birgina tipga xos belgiga ega bo’lib qolmas-dan, balki, ikki va undan ham ko’proq tipning belgilariga ega bo’ladi. Kishida xolerik tipdagi xususiyatlar bilan bir qatorda, masalan, sangvinik tipdagi kishining belgilari ham bo’lishi mumkin; melanxolik tipdagi kishida esa flegmatik tip

xususiyatlari uchraydi va hokozolar. Bu tiplar sof holda hayotda ancha kam

uchraydi. Yana ko’pgina o’tkinchi oraliq yoki aralash tiplar bor. Temperament tiplarining psixologik tavsifi quyidagi muhim xususiyatlar yordamida aniqlab olishimiz mumkin:

1. Senzitivlik (lotincha sensus – sezish, his qilish). Insonda bironta psixik reaksiyani hosil qilish uchun zarur o’ta kuchsiz sezgilarning paydo bo’lishi uchun kerak qo’zg’ovchining ozgina kuchi, ehtiyojlar qondirilmasligining sezilar - sezilmas darajasi mujassamlashadi.

2. Reaktivlik – aynan bir xil kuch bilan ta’sir etuvchi tashqi va ichki taassurotlarga shaxs qanday kuch bilan emotsional reaksiya qilishiga qarab munosabat bildiriladi. Reaktivlikning yorqin ro’yobga chiqishi emotsionallik, ta’sirlanuvchanlikning ifodalanishidir.

3. Faollik - inson qanday faollik darajasi bilan tashqi olamga ta’sir ko’rsatishi va maqsadlarini amalga oshirishda obyektiv hamda subyektiv qarama-qarshiliklarni faollik bilan yengishiga qarab fikr yuritiladi.

4. Refaollik bilan faollikning o’zaro munosabati. Bunda odamning faoliyati ko’p jihatdan nimaga bog’liqligiga qarab, misol uchun, tashqi va ichki sharoitlarga (kayfiyatga, favqulodda holatda) yoki maqsadlarga, ezgu niyatlarga, xohish-intilishlarga ko’ra fikr bildirish nazarda tutiladi.

5. Reaksiya tempi - psixik reaksiyalar va jarayonlarning kechish tezligiga, binobarin, harakat tezligiga, nutq suratiga, farosatlilikka, aql tezligiga asoslanib xulosa chiqariladi.

6. Harakatlarning silliqligi va unda qarama-qarshi sifat rigidlik (qotib qolgan-lik), shaxsning o’zgaruvchan tashqi taassurotlariga qanchalik yengillik va chaqqon muvofiqlashuviga, shuningdek, uning xatti-harakatlari qanchalik sust va qotib qolganligiga baho berishdan iboratdir.

7. Ekstravertlik va intravertlik - shaxsning faoliyati va reaksiyasi ko'p jihatdan nimalarga bog'liqligiga, chunonchi favquloddagi, tashqi taassurotlarga (ekstravertlik) yoki aksincha, timsollarga, tasavvurlarga, o'tmish hamda kelajak

bilan uyg'unlashgan mulohazalarga (intravertlik) taalluqlidir.

Sangvinik – juda faol, har bir narsaga ham qattiq kulaveradi, yolg'on dalillarga jahli chiqadi. Atrofdagi narsalar, ma'ruzalar diqqatini tez jalb etadi. Imo-ishoralar-ni ko'p ishlatadi, chehrasiga qarab kayfiyatini aniqlab olish qiyin emas. Juda sezgir bo'lishiga qaramay kuchsiz ta'sirni (qo'zg'atuvchilar) seza olmaydi, serg'ayrat, ishchan, toliqmas. Faollik bilan refaollik munosabati muvozanatda, intizomli, o'zini tiya biladi, boshqara oladi. Xatti-harakati jo'shqin, nutq surati tez, yangilikni tez payqaydi, aql-idroki tiyrak, topqir, qiziqishlari, kayfiyati, intilishlari o'zgaruv-chan. Ko'nikma va malakalarni tez egallaydi. Ko'ngli ochiq, dilkash, muloqotga tez kirishadi. Fantaziyasi yuksak darajada rivojlangan, tashqi ta'sirlarga hozirja-vob.

Xolerik – sust senzitivlik xususiyatiga ega. Juda faol va refaol. Ko'pincha refaolliki faollikdan ustun keladi. Betoqat, serg'ayrat, tinimsiz. Sangvinikka qaraganda silliqroq, lekin ko'proq qotib qolgan. Qiziqishlari, intilishlari barqaror, xatti-harakatlarida qat'iylik mavjud. Biroq diqqatni bir joyga to'plashda qiynaladi. Nutq surati tez va hokazo.

Flegmatik – senzitivligi sust, his-tuyg'usi kam o'zgaruvchan, shunga ko'ra bunday shaxsni kuldirish, jahlini chiqarish, kayfiyatini buzish qiyin. Ko'ngilsiz hodisa, xavf-xatar haqidagi xabarga xotirjamlik bilan munosabatda bo'ladi. Vazmin, kam harakat, imo-ishorasi, mimikasi ko'zga yaqqol tashlanmaydi, lekin serg'ayrat, ishchan, faol, chidamli, matonatli. Nutq va harakat sur'ati sust. Faoli-yati kamroq. Diqqatni to'plashi osoyishta. Diqqatni ko'chirishi qiyin. Intravert-lashgan, kamgap, ichimdan top, yangilikni qabul qilishi qiyin. Tashqi taassurotlar-ga sustlik bilan javob beradi.

Melanxolik – sentizivligi yuksak, tortinchoq, g'ayratsiz, arazchan, xafaqon. Jimgina yig'laydi, kam kuladi. Qat'iyligi va mustaqilligi zaif. Tez toladi, diqqati beqaror. His-tuyg'usi sust o'zgaradi. Rigid, interavertlashgandur.

Temperament xususiyatlarini yoshlikdan tarbiyalab borish juda ham muhim fazilatdir. Buning uchun bolaning qaysi temperament tipiga taalluqli ekanini

aniqlash zarur. Misol uchun, chaqaloq yig'loq, besaramjon bo'lsa harakatchan tipga, tinch, kam yig'laydigan bo'lsa flegmatik bo'lishi mumkin. Bolalar temperamentini maxsus o'yinlar orqali o'rganish mumkin. Masalan, xonaning 2 tomoniga stol qo'yiladi, 20 ta kubik va kurakcha qo'yib, kubiklarni kurakchaga taxlab 2-stolga ko'chirish taklif qilinadi. Xolerik tipdagi bola ishni birinchi bo'lib bajara-man deb shoshilib kubiklarni to'kib yuboradi. Melanxonik men buni qila olmayman deydi, flegmatik shoshmasdan sekin bajaradi.

Planning preparatory mesocycles The training mesocycle is a stage of the training process that lasts from 3 to 6 weeks. The organization of the training process on the basis of mesocycles makes it possible to systematize it in accordance with the main task of the preparatory period or stage, to achieve the necessary consistency in the development of various qualities and abilities, ensuring the optimal dynamics of training loads and Moses - baqa activities, the targeted harmonization of various preparatory tools and methods, pedagogical influence factors Traditional mesocycles are classified into eight types, namely: - puller; - base and their developer; - stabilizer; - control-preparation; - bleach; - took a race; - race recovery-preparation; - recovery-preservative. Each mesocycle will consist of three, six microcycles. Their set is determined by certain tasks of the planned mesocycle. Such a large number of mesocycle types greatly complicates the structure of the training process and makes it difficult to plan - strain the training. It is precisely this that the rare use of the above-mentioned mesocycle types in training planning of athletes is associated, and the types of mesocycles are more convenient for classified practice: pulling, basal, control-preparatory, competition-taking and competition. According to Muta - chassis, the main tasks of pulling mesocycles are to purposefully bring athletes closer to the effective performance of special training work. In basal mesocycles, the main work is carried out to increase the functional capabilities of the main systems of the body, develop physical qualities, improve technical, tactical and mental training. Control-preparatory mesocycles synthesize the capabilities that athletes have achieved in previous mesocycles (in accordance with the nature of competition activity), that is, integral preparation is carried out. The competition received mesocycles designed to eliminate the mines detected during the athlete's training, to improve his technical im - cones. A special place in these mesocycles is occupied by mental-tactical training aimed at a specific goal. The number and structure of the competition mesocycles is determined by the specifics of the sport, sports characteristics, qualifications of athletes and the level of readiness and readiness. The stability of the general structure of mesocycles contributes to the regular improvement of their maz - Muni, effective control O'r - natish, the implementation of the principle of "advanced" planning on the surface in practice. According to this principle, the results of training in microcycles and mesocycles of the current macrocycle are immediately applied to the planning of a program of similar structures of the macrocycle in turn.

#### **LIST OF LITERATURE USED:**

1. Muxammadali o'g, To'xtasinov Bobir. "BELBOG 'LI KURASHCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH USLUBLARI." E Conference Zone. 2022.

2. Muxammadali o'g, To'xtasinov Bobir. "Methods of Improving Technical Training of Belt Wrestlers." Texas Journal of Multidisciplinary Studies 7 (2022): 322-325.
3. Muxammadali o'g, To'xtasinov Bobir. "BELBOG 'LI KURASHCHILARNI MASHG 'ULOTLARDA UMUMIY VA MAXSUS JISMONIY TAYYORGARLIGI TAKOMILLASHTIRISH." E Conference Zone. 2022.
4. METAPHORIZATION OF WORDS SPECIFIC TO THE CATEGORY OF NOUNS IN THE NOVEL «THEOREM»
5. Mirzanov Sh.S. Belbog'li kurash nazariyasi va uslubiyati. Darslik., Chirchiq - 2022.
6. Mirzaqulov Sh.A. Belbog'li kurash nazariyasi va uslubiyati. Darslik., Toshkent – 2020
7. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va uslubiyoti. Darslik., Toshkent - 2009.
8. Tastanov N.A. Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati., Darslik .,Toshkent - 2017
9. Artikov Z.S. Sport pedagogik maxoratini oshirish (Belbog'li kurash). O'quv qo'llanma,. Toshkent - 2020



## YOSHLARDA INTELLEKTUAL SALOHİYATNI PSIXOLOGIK TADQIQ ETILISHINNG AHAMIYATI

**Alikulova Markhabo Bobokulovna**  
*Uchtera tuman 283-maktabning psixologi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada yoshlarning aqliy qobiliyatlari, bilimlari shuningdek, intellektning qanchalik ahamiyat kasb etishi va u ustida olib borilgan tadqiqotlar bo'yicha ham tanishiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Intellekt, kreativlik, konvergent, divergent, idrok, anketa, koeffsient, ehtiyoj, jamiyat, tafakkur,*

**АННОТАЦИЯ:** *В этой статье рассказывается об умственных способностях и знаниях молодых людей, а также о важности интеллекта и проводимых в его отношении исследованиях.*

**Ключевые слова:** *Интеллект, креативность, конвергентный, дивергентный, восприятие, анкета, коэффициент, потребность, общество, мышление.*

Hozirgi kunda yoshlarning intellektual darajasi qay darajada ekanligini bilish uchun turli test savollari, suhbat, anketalar kabi usullardan foydalanib o'rganilmoqda. Aynan, bolalarning bilim salohiyatini o'rganish juda muhim hisoblanadi. Avvalo, intellekt so'ziga ta'rif beradigan bo'lsak, intellekt lotincha "intellektus" so'zidan olingan bo'lib, bilish, tushunish, idrok qilish, anglash ma'nolarini beradi, ya'ni insonlarning aqliy qobiliyati orqali atrof-muhitni ongda aynan aks ettirish, uni ma'lum miqdorda o'zgartirish, tafakkur qilish, ilm olish, o'rganish, olamni anglash va jamiyatdagi yangiliklarni qabul qilish, kelajakni oldindan ko'ra olish, shu bilan birga biror bir qarorga kelish va oqilona ish tutish qobiliyati demakdir. Aynan jamiyatdagi bu kabi masalalarga texnika taraqqiyoti shiddat bilan yuksalib borayotgan bir davrda juda ham ehtiyoj katta hisoblanadi. Intellekt tarkibiy qismlarga ajratilgan holda quyidagilarni tashkil etadi: xotira, idrok qilish, tafakkur qilish, fikrlash, muloqot qilish va shu kabi bir nechta psixik jarayonlar. Intellektning rivojlanishi yoki paydo bo'lishi aynan bitta qonuniyatga bo'ysunmaydi. Negaki, tug'ma qobiliyat, miyaning qabul qilishi, faolligi, tinimsiz faoliyati, orttirilgan tajriba kabi zarur sotsial omillarga bog'liq. Shuning uchun, bolalar va o'smirlarda aynan intellektning kelib chiqishi bir tomondan emas, intellekt darajasi past natijani ko'rsatgan taqdirda ham uni yuqori miqdorda rivojlantirish mumkin. Intellekt, avvalo, insonning dunyoqarashiga, olingan tajriba natijalariga xuddi shuningdek, psixologik yondoshuv orqali ham belgilanadi. O'z davrining mashhur olimlari bu tushunchaga o'z tadqiqotlaridan kelib chiqqan holda turlicha yondashganlar. V.Shterni, Jan Piaje, D.Veksler kabi olimlar intellektni hayvonlar va insonlarni hayot sharoitiga moslashtiruvchi omil sifatida qaraydilar. Ushbu yondoshuvlarda ular longityud metodidan foydalanadilar va bunda Amerikalik

talabalarda tadqiqot o'tkazadilar. Tadqiqotda dastlab IQ ya'ni intellekt koeffisienti aniqlab olinadi va ularni IQ darajasiga qarab bir necha o'n yil mobaynida kuzatishgan. Bu tadqiqotda shu narsa ma'lum bo'ldiki, intellekt koeffisienti yuqori bo'lgan talabalarda intellekt darajasi past natijani ko'rsatgan talabalarga nisbatan hayotda: ishda, oilada, o'ttiz marta ko'p yutuqlarga erishgan. Bundan shuni anglash mumkinki, bola bo'ladimi yoki o'smirni, avvalo, intellekt darajasini yuksaltirish bo'yicha izlanishlar olib borilishi kerak. Chunki, qanchalik intellekt darajasi yuksalgan sayin, uning ongi bilan bir qatorda dunyoqarashi ham o'zgarib boradi. Bilamizki, intellekt aql demakdir. Bolalarni yuksaltirish har xil malaka, ko'nikma, tajribalar orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Bu daraja genetik jihatdan ham namoyon bo'lib, qobiliyat kabi aks etishi mumkin. Biroq, genetik tomondan o'tmagan taqdirda ham, aqliy salohiyatni rivojlantirish mumkin. Yurtimizda ham IQ darajasini oshirish bo'yicha ham ko'plab ishlar olib borilmoqda. Bunga yaqqol misol qilib, ta'lim sohasida olib borilayotgan ishlarni ham olsak bo'ladi. Har bir sohalarda, xususan, qay bir yo'nalishga qobiliyati bor yoshlar uchun turli imkoniyatlar yaratilib berilmoqda. Jumladan: rassomchilik, san'at, adabiyot, sport kabi. Bundan esa maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodni iqtidorli, bilimli, keng fikrlaydigan, bir so'z bilan aytganda yurt kelajagi uchun poydevor yaratish desak mubolag'a bo'lmaydi. Ba'zida intellekt bilan kreativlik bitta narsa sifatida qaraladi. Bu tushunchalar bir-biriga bog'liq tushunchalar hisoblanadi. Har ikkisining ham o'z yo'nalishi va vazifalari mavjud. Bu ikkalasi bir-biriga yaqin tushuncha hisoblanib, buni farqlash lozim. Intellekt orttirilgan tajribalar va olingan bilimlar orqali insonning hayotga moslashishi bo'lsa, kreativlik esa hayotga moslashishi emas, balki uni o'zgartirishidir. Kreativlikning asosiy namoyon bo'luvchi belgisi - bu insonning xayotga moslasha olmasligi hisoblanadi. Shu narsa ham aniqlanganki, ba'zi olimlar insonning kreativlik holatini insonning boshqa insonlardan va tashqi olamdan tanholigi va yolg'izlanishi deb hisoblaganlar. Buni esa bir qancha tadqiqot va nazariya orqali ochib berishga harakat qiladilar. O'z navbatida bunday fikrlar boshqa olimlar tomonidan ham o'rganila boshlangan. J.Gervord kreativlik va intellektni o'rganib, ikkisini bir-biriga qarama-qarshi tushuncha deb uqtiradi. Bular konvergent tafakkur va divergent tafakkur hisoblanadi. Buni quyidagicha tushuntirib o'tadi. Konvergent tafakkur masalalarini yechishning bir necha vositalarni tahlil qilib, ulardan faqat bitta ma'qulini tanlash hisoblanadi. Bunda konvergent tafakkur intellekt asosida quriladi. Har bir bajaradigan funksiyasi, natijasi va ro'yobga chiqishi asosida intellekt koeffisienti yotadi. Buni esa intellektning jamlanmasi deb atash mumkin. O'z navbatida berilgan tafakkur masalasi bitta variant asosida turli variantlarning yaratilishi demakdir. Bunda esa tanlab olingan hamda mos bo'lgan variant asosida boshqa ma'qul bo'lgan variantlarni ham topish va ulardan foydalanish tushuniladi. Berilgan tafakkur kreativlik asosida quriladi. Demak, intellekt va kreativlik umumiy ko'rinishdagi ikki xil qobiliyatlar bo'lib, bu ikkisini mavjud bo'lgan ma'lumotlarni qaytadan ko'rib chiqish holati bilan bog'lab tushuntirish mumkin. Yoshlar uchun intellekt koeffisientining yuqoriligi qanchalik muhim bo'lsa, kreativlik ham shunchalar

muhim hisoblanadi. Ayni paytda, kreativlik ham har bir inson uchun zarur asosga egadir. Negaki hozirgi shiddatli bir zamonda yoshlarning kreativlik xususiyati ham yuqori darajada bo'lishi kerak. Bu esa, yoshlarning yangidan-yangi g'oyalar asosida yangi tadqiqotlar olib borilishi, yangidan-yangi narsalar yaratilishi uchun ham zarur bo'lgan omil desak adashmaymiz. Xalqning rivojlanishi uchun, uning yanada ravnaq topishi uchun bilim olishga bo'lgan ehtiyoj yuqori bo'lishi kerak. Buning uchun shart-sharoitlar ham yetarli darajada bo'lmog'i lozim. Yoshlar o'rtasida turli tanlovlar, tadbirlar olib borilishi ham ularning intellekt va kreativlik jihatlarini yanada yuksaltirishga qaratilgan. Har bir davrda, shu bilan birga, har bir davlatda haligacha yechimini topmagan muammolar, oxiriga yetmagan ishlar mavjud. Bunda esa intellekt hamda kreativlik koeffisienti yuqori bo'lgan mutaxassislariga ehtiyoj seziladi.

Demak komil inson bo'lish - yurtning ertangi kuni uchun kuchli mutaxassis bo'lish demakdir. Buning uchun bizga intellektning o'zi kamlik qiladi. U bilan teng bo'lishi kerak bo'lgan kreativlik ham inson faoliyati uchun juda muhim sanaladi. Aytib o'tganimizdek intellekt moslashish hisoblanib, jamiyatdagi ijtimoiy muhitga tobora moslashib yashasak, ayni paytda kreativlik jamiyatdagi ba'zi bir qarashlar, muammolarni o'zgartirib, ularga oqilona yechim topishda katta ahamiyatga ega. Shaxs hisoblangan har bir kishida yuqoridagi har ikkisinin ham bo'lishi juda muhim hisoblanadi. Ular esa, xalqning manfaatlari, kelajagi uchun katta ishlar olib borishga qodir bo'ladilar. Nafaqat o'zining vatani uchun, balki butun dunyo uchun ham yangiliklar yaratadi, qolaversa dunyodagi ba'zi narsalarni o'zgartirishlari ham mumkin. Shunday ekan, yoshlarning qobiliyatlariga hamda kelajagiga befarq munosabatda bo'lmasligimiz lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Bo'riyev O. O'zbek oilasi tarixi – Toshkent 1995
2. Abdurauf Fitrat. Oila – Toshkent 2000
3. X.G.Sharafiddinova. Umumiy psixologiya – Toshkent 2022
4. Fazliddin Ikroruddin. Nikoh va oila risolasi – Toshkent 2004
5. E.Ergash G'oziyev. Umumiy psixologiya – Toshkent 2002
6. P.I. Ivanov, M.E.Zufarova. Umumiy psixologiya – Toshkent 2015

## AL-BUXORIYNING IJODIY FAOLIYATINI O'RGANISH BO'YICHA TAHLILIIY YONDASHUVLAR

**Saidnazarova Gulshan Bolta qizi**

*Buxoro davlat universiteti pedagogika kafedrasida o'qituvchisi*

**Саидназарова Гулшан Болта кизи**

*Преподаватель кафедры педагогики Бухарского  
государственного университета*

**Annotatsiya:** *Maqolada Imom Ismoil al-Buxoriyning hayoti, ilmiy faoliyati, asarlari haqida qisqacha sharh hamda hozirgi kunda Imom Ismoil al-Buxoriy faoliyatini o'rgangish, shu jumladan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar mohiyati ko'rsatilgan.*

**Tayanch tushunchalar:** *Odob-axloq, hadis, ta'lim-tarbiya, madaniy meros, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, tarix, an'ana, qadriyat.*

**Аннотация:** *В статье дан краткий обзор жизни, научной деятельности и творчества имама Исмаила аль-Бухари, а также современное исследование деятельности имама Исмаила аль-Бухари, в том числе сущности реформ, реализуемых в нашей стране.*

**Ключевые слова:** *Этика, хадисы, образование, культурное наследие, духовно-просветительские произведения, история, традиции, ценности.*

Yangi O'zbekiston huquqiy demokratik jamiyat qurish yo'lidan borar ekan, o'z fuqarolarining, ayniqsa, yangi jamiyat barpo etishga bel bog'lagan, o'sib kelayotgan avlodning ma'naviy-axloqiy shakllanishiga alohida e'tibor qaratmoqda. Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo'lib kelgan. Xalqimizning boy madaniy, ma'rifiy milliy merosini, tarixini, bobomeros an'analari, qadriyatlari, urf-odatlarini, bayramlari, marosimlari mazmuni va ularning umumbashariy ahamiyatini bilmagan yoshlarda milliy ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirib bo'lmaydi.

Dunyoda inson va uning qadr-qimmatini, jamiyat taraqqiyoti ajdodlar qoldirgan boy ma'naviy meros bilan baholanib, kelajak poydevori sifatida qadrlanib keladi, jumladan, buyuk muhaddis Imom Ismoil Al-Buxoriy ma'naviy merosi Yevropa hamda Osiyoning ko'pgina rivojlangan mamlakatlari tadqiqot markazlarida keng o'rganiladi. Muhaddisning ma'naviy-ma'rifiy qarashlarini o'rganishga asoslangan loyihalar, muzey va virtual muzeylar, jamg'armalar, konferentsiyalar, internet sahifalari hamda ilmiy jurnallar tizimi joriy etilgan.

Prezidentimiz Sh.Sh.Mirziyoyev 2019 yili Samarqand viloyatiga tashrifi chog'ida Imom Buxoriy yodgorlik majmuasini kengaytirish zarurligini ta'kidlab "Bu yerda ulug' bobomiz Imom al Buxoriy xotirasi bor. 600 ming hadisni piyoda yurib to'plagan. Uning merosini butun musulmon dunyosiga tarannum etsak arziydi. Bobomizga munosib

maqbaralar, masjidlar qurishni boshlaganmiz. Bu yerga kelgan mo‘min-musulmonlarga sharoit yaratsak, ular ham buyuk tarixli davlat ekanimizga, shu tarixni elga, ayniqsa, yoshlarga yetkazishni istayotganimizga guvoh bo‘ladi. O‘zimizga ham bu ishlarimiz insof, diyonat, shukronalik hissiyotlarini beradi” [1] deb nutq so‘zladilar. Darhaqiqat, hadis ilmining ravnaqiga ulkan hissa qo‘shgan yirik alloma, buyuk vatandoshimiz Imom al-Buxoriy ilmiy-diniy merosini xalqimiz ma’naviy-ruhiy hayotidagi beqiyos o‘rni juda kattadir. Buayuk alloma “Sahih” yo‘nalishining asoschisi Imom Ismoil al-Buxoriyning to‘liq ismlari Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn Mug‘iyra ibn Ahnaf Bardizbah Jo‘fiy buxoriydir. hadis ilmida “Amir-ul-mo‘minin”, “Imom al-muhaddisiyn” (“Barcha muhaddislarning peshvosi”) degan sharaflı nomga sazovor bo‘lgan.

Imom Buxoriy ilmli, ahli fazl va solih oilada Milodiy 810 yilning 13 mayida (ba‘zi manbalarda 810 yilning 20 iyulida) (hijriy 194 yil shavvol oyining 13 kuni) Buxoroda tug‘ilgan. U kishi kichik paytlarida otalari vafot etib, akasi Ahmad va onasi tarbiyasida o‘sdi. Dastlabki ilmni Buxorodan boshlab, boshlang‘ich ilmdan tahsil olib bo‘lganidan, keyin hijriy ikki yuz beshinchi sanada hadisdan dars olishni boshladi[2].

Imom Buxoriy ba‘zi kitoblarni tuzatib, “Al jome as-sahih” va uning tarjimalariga asos solgan adib hisoblanadi. Imom Buxoriy o‘z hayoti davomida ko‘p marotaba va tom ma‘noda sermahsul safarlarda bo‘ldi, o‘z zamonasida qarib barcha islomiy mamlakatlarga, ba‘zilariga esa bir necha marotaba safar qilgan. Xususan Xuroson, Jibol, Iroq, Hijoz, Shom, Misr, Bag‘dod shaharlariga bir necha marta borib u erdagi muhaddislardan hadislarni eshitib yig‘gan.

Imom Buxoriy yoshligidan iste‘dodli, juda kuchli ilm va xotiraga ega kishi bo‘lgan, har bir o‘qigan hadisni yod olib, xotiradan so‘ragan kishiga xatosiz aytib bergan, yoshlikdagi o‘rtoqlari ham hadislarda qilgan xatolarini shu kishi orqali tuzatib olgan. Manbalarga ko‘ra, Bag‘dod shahrida istiqomat qilgan vaqtida ko‘pincha qorong‘u kechalari sham yorug‘i va oying nurida ijod qilib, kitob yozar ekan. Tunda yodiga bexosdan biror-bir fikr-mulohaza tushib qolsa, shamni yoqib, darhol o‘sha fikrni qog‘ozga tushirar, shu tahlitda ba‘zan shamni yigirma martagacha o‘chirib-yoqar ekan [3].

U zot faqirlarga mehribon, qo‘li ochiq, sahiy inson bo‘lib, otalaridan qolgan ko‘p miqdordagi molni sadaqa qilgan. Imom al-Buxoriyning eng ulug‘ fazilatlaridan yana biri u taassub (mutaassiblik)ning har qanday ko‘rinishlaridan uzoq bo‘lganidir. Uning shoh asari «Sahih al-Buxoriy» bilan chuqurroq tanishilsa, al-Buxoriyning o‘z kitobidagi ma‘lumotlarga nihoyatda katta sinchkovlik va ehtiyotkorlik bilan yondashganini ko‘ramiz. Qanchadan-qancha mashaqqatlar bilan to‘plangan hadislarining sahihligiga to‘la ishonch hosil qilib, obdon tekshirgandan keyingina o‘z asariga kiritganligi bu fikrni yana bir karra tasdiqlaydi.

Imom al-Buxoriyning «Sahih» asari haqida gapirar ekanmiz, shuni ham qayd qilish kerakki, ushbu kitobning sahih isnodlarida ahli sunnaga mansub bo‘lmagan roviylar ham uchraydi. Al-Bu-xoriy muhaddislarda hadislarga bo‘lgan katta mehr va

intilish hamda unga qat'iy amal qilish har qanday tahsinga sazovor, deb hisoblardi. Bu masala g'oyatda muhim bo'lib, bu xususda ba'zi muhaddislarning o'zlari ham fikr-mulohaza bildirganlar. Jumladan, imom Ahmad ibn Hanbal: «O'zim amal qilmagan bitta ham hadisni kitobga olmaganman», - deb ta'kidlagan bo'lsa, o'z davrining yirik muhaddislaridan biri sanalgan Vakiy ibn al-Jarroh: «Agar biror hadisni yodlashni istasang, eng avvalo, unga amal qil», - degan. Yana bir muhaddis Ibrohim ibn Ismoil esa: «Hadislarni yodlashda, eng avvalo, unga amal qilish yo'lidan foydalanardik», - deb ta'kidlagan, alloma as-Suyutiy o'zining «At-Tadriyb» nomli asarida bu jarayonni quyidagicha ifodalaydi. «Ibodatlari, odob-axloq, fazilatlar, solih a'mollar xususida eshitgan hadislardan samarali foydalanish lozim. Bu, birinchidan, ushbu hadisning zakoti, ikkinchidan esa, uni yodlash uchun yaxshi omildir».

Manbalarda keltirilishicha, imom al-Buxoriy o'z ilmiy-ijodiy faoliyati davrida yigirmadan ortiq asarlar yaratgan. Ular quyidagilardan iborat: «Al-Jomi' as-sahih», «Al-Adab al-mufrad», «Kitob al-kuna», «Kitob al-favoid», «Juz' raf' al-yaddayn», «At-Tarix al-kabir», «At-Tarix al-avsat», «At-Tarix as-sag'ir», «Al-Jomi' al-kabir», «Xalq af'ol al-ibod», «Kitob az-zuafo as-sag'ir», «Al-Musnad al-kabir», «At-Tafsir al-kabir», «Kitob al-hiba», «Asomiy as-sahoba», «Kitob ul-vuhdon», «Kitob al-mabsut», «Kitob al-ilal», «Birr al-volidayn», «Kitob al-ashribati», «Qazoyo as-sahoba va-t-tobin», «Kitob ar-Riqoq», «Al-Jomi' as-cag'ip fi-l-hadis», «Al-Qiroatu xalf al-imom»[4].

Hozirda yurtimiz allomaning ko'plab asarlari chop etilmoqda. Imom Buxoriy Hazratlarining "al-Jome' as-sahih", "al-Abad al-mufrad" asarlari ham bir necha bor minglab nusxalarda chop etilmoqda. Istiqloq sharofati bilan Buxoriyning o'lmas merosi elyurti bag'riga qaytdi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo'yicha 1225 yilligini nishonlash to'g'risida»gi qarori (1997 yil 29 aprel) asosida Buxoriyning ilmiy merosini o'rganish va targ'ib qilish, xotirasini abadiylashtirish borasida katta ishlar qilindi. 1998 yil 23 oktyabrda Samarqandda yubiley to'ytantanalari bo'lib o'tdi. Alloma abadiy qo'nim topgan Chelak tumanidagi Xartang qishlog'ida ulkan yodgorlik majmui ochildi.

Mazkur qarordan ko'zlangan maqsad buyuk vatandoshimiz, hadis ilmining sulтони Imom Buxoriyning boy merosi, u zotning jahon sivilizatsiyasi, ilm-fan taraqqiyoti rivojiga qo'shgan bebaho hissasini chuqur tadqiq etish va keng targ'ib qilish, yosh avlodni millatlar va dinlararo bag'rikenglik, o'zaro hurmat, tinch-totuv hayotni qadrlash va mustahkamlash ruhida tarbiyalash, shuningdek, xalqaro miqyosdagi ma'naviy-ma'rifiy muloqot va hamkorlikni kuchaytirishdan iborat.

Imom Ismoil al-Buxoriy faoliyati va ijodiy merosini juda ko'plab olimlarimiz o'rganishmoqda va bu borada juda ko'p salmoqli ishlar ham amalga oshirilyapti, jumladan U. Uvatov ilmiy tadqiqot ishida uch buyuk muhaddisning (Imom al-Buxoriy, Muslim ibn al-Hajjoj, Abu Iso at-Termiziy) hayot yo'llari, ichki va ilmiy dunyolari, ularning insoniy fazilatlarini, ilm-fan ravnaqi yo'lidagi qilgan xizmatlari, mazkur hadisshunoslarning o'zaro aloqalari, ularning ilmiy-ma'naviy merosini o'rgangan [5].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Imom Ismoil al-Buxoriyning boy ma'naviy merosi ayniqsa, "Al adab -al mufrad" asari bilan yaqindan tanishish natijasida asar shaxsni ma'nan yetuk, axloqan poklikka yetaklash manbai ekanligi yaqqol namoyon bo'ldi. Ushbu fikrlar asosida oliy ta'lim muassasalari talabalarida Imom Ismoil al-Buxoriy ma'naviy merosini o'rganish jarayonining mazmunini quyidagicha ifodalash mumkin: komil inson, o'zlikni anglash ijtimoiy zaruriyat bo'lib, bu muammoning hal etilishi milliy va umumbashariy qadriyatlardan unumli foydalanish, barkamol insonni tarbiyalashdek ulkan maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi. Imom Ismoil al-Buxoriyning ma'naviy merosi ta'lim jarayonida ta'lim -tarbiyaning uzviylik, amaliyot bilan bog'liqlik, muntazamlilik, davomiylik, onglilik, faollik tamoyili, ta'limda o'quv faoliyatini yaxlit shakllantirish, ta'limni ilmiy asosda tashkil etish tamoyillariga mos keladi. Buyuk muhaddisning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlaridan foydalanish talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini mustahkamlash imkonini beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Sh.Mirziyoyevning 2022 yil 24 avgustda Samarqand viloyatida amaliy tashrifida Imom Buxoriy ziyorati <https://president.uz/uz/lists/view/5457>
2. Уватов У. Ҳадис илмининг султони. Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1993 йил. 29 октябр. №43-44
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Odoblar hazinasi" ,"al -adab- Al-mufrad" kitobining sharhi "Nilol nashr" Toshkent 2021-yil 35-40
4. Уватов У. Мовароуннахр ва Хуросон олимларининг ҳадим илми ривожда тутган оърни. -Т., 2004.
5. Жураев Б. Т. Вопросы нравственного и культурного воспитания в эпоху саманидов (на примере творчества ал-бухари и ал-фараби) //Современное общество: актуальные проблемы и перспективы развития в социокультурном пространстве. – 2020. – С. 66-71.
6. Жураев Б. Sharqda pedagogik faoliyatning maydonga kelishi va rivojlanishi //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. S/2. – С. 343-350.
7. Саидназарова Г. Б. Навык педагогического влияния //Вестник магистратуры. – 2019. – №. 4-3 (91). – С. 80-81.
8. Khodjaev B., Juraev B., Amonov M. Forming the spirituality of students and youth through pilgrimage tourism //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 420. – С. 10017.
9. Самиева Ш. Х. Важные направления инновационной подготовки молодежи к духовно-просветительской деятельности //Качество жизни

населения промышленных территорий в стратегии «Общество 5.0». – 2022. – С.  
153-156.



## KONSTITUTSIYA VA YOSHLAR

**Xursandov Elyor Dustbekovich**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada, Konstitutsiyaning yoshlar hayotidagi o'rni va qanchaluk darajada kerakli ekanligi haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Farmoyish, yosh tadbirkor, ijod maktabi, biznes loyihalar, asosiy hujjat, kadrlarni tayyorlash.*

**Abstract:** *This article discusses the role of the Constitution in the lives of young people and how important it is.*

**Keywords:** *Order, young entrepreneur, school of creativity, business projects, basic document, training.*

*"Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi".*

*(Òzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 41-moddasi)*

### KIRISH

Barcha tengdoshlarim qatori mening hayotimda ham Konstitutsiyaning òrni katta. Bilim olish sport bilan shugullanish, kasb-hunar òrganish, ishlash, dam olish va davolanish, chet ellerga chiqish imkoniyatiga egaman. Mustaqil Òzbekiston farzandi sifatida orzularimga yetishish yòlidagi barcha eshiklar men uchun ochiq ekanligini bilaman va bundan gururlanaman. Maqsadim Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, barkamol avlodning biri bòlib yetishish, el-yurt ravnaqi uchun sidqidildan xizmat qilish. Òz oldiga ulkan maqsadlar qòygan va ertangi kuniga ishonchi mustahkam yoshlar – yurtimiz kelajagi. Prezidentimiz rahnamoligida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar, navqiron avlod kamoloti yòlidagi gamxòrliklar Bosh qomusimizda belgilangan huquq va kafolatlarning amaldagi ifodasidir.

Xalqimizning xohish irodasi bilan 29 yil muqaddam qabul qilingan Asosiy qomusimiz barcha sohalar qatori ta'lim tizimini ham sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga kòtarishda muhim huquqiy asos bòlib xizmat qilmoqda. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning 2001-yil 4-yanvardagi "Òzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini òrganishni tashkil etish tògrisida"gi Farmoyishiga asosan aholining, ayniqsa, yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, òz huquqidan foydalanish kònikmasini mustahkamlash borasida keng kòlamli ishlar amalga oshirilib kelinyapti.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Òzbekiston Respublikasining "Ta'lim tògrisida"gi Qonuni va Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi asosida barcha ta'lim maskanlari zamonaviy tarzda qayta barpo etilib, jahon talablari darajasida jihozlandi. Yoshlarimizning intellektual salohiyatini yuksaltirish, bandligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan keng kòlamli ishlar òzining yuksak samaralarini bermoqda. Mamlakatimizda yoshlarning zamonaviy ta'lim

tarbiya olishi, keyinchalik òzi tanlagan kasb bòyicha ishini davom ettirishi uchun barcha sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Biz yoshlarning haq-huquq va erkinliklari kafolatlab qòyilgan Konstitutsiyamizni òqish uning har bir moddasini òrganish, mazmun- mohiyatini tushunish hayotimizda juda muhim òrin tutishini yaxshi bilamiz.

Konstitutsiyamizda yoshlarning bilim olishi, kasb-hunar egallashi, oila qurish, yashash joyiga ega bo'lish hamda o'z iqtidor va salohiyatini namoyon etishi uchun sharoit yaratilishi huquqiy ifodasini topgan. Hozirgi vaqtda yurtimizda aholining oltmish foizidan ortig'ini tashkil etayotgan navqiron avlod uchun davlat tomonidan keng qamrovli tadbirlar ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilmoqda. Yosh avlodning sog'lom bo'lib o'sishi, sifatli ta'lim olishi va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishini ta'minlash, shuningdek, yoshlarning madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari va kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan 5 ta muhim tashabbusni joriy etish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Yigit-qizlarimizning biznes loyihalari uchun "Yoshlar – kelajagimiz" davlat dasturi doirasida 719 mlrd. so'mlik 4 633 ta biznes loyiha amalga oshirilgan. Hududlarda 125 ta "Yoshlar mehnat guzari", 19 ta "Yosh tadbirkorlar" kovorking markazi, mamlakatimiz ijtimoiy hayotida faol qatnashib, alohida namuna ko'rsatayotgan yosh oilalarga 1 731 ta "Yoshlar uylari" qurilib, foydalanishga topshirildi.

#### **MATERIAL VA METODLAR**

Yurtimizda tashkil etilayotgan yangi-yangi bog'chalar, maktablar, oliy o'quv yurtlari, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari, madaniyat va sport inshootlari, "Temurbeklar maktabi", "Prezident maktablari", "Ijod maktablari" deb nom olgan mutlaqo yangi namunadagi ta'lim maskanlari bugungi globallashuv sharoitida raqobatga qodir bo'lgan yetuk kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan.

Ta'lim-tarbiya tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi, maktab ta'lim tizimi tubdan isloh qilinib, 11 yillik umumiy o'rta ta'lim qayta joriy etildi. Viloyatlarda yangi oliy ta'lim muassasalari, ilmiy va ijodiy markazlar tashkil etilmoqda. Oliy o'quv yurtlariga qabul kvotalari sezilarli darajada kengaytirildi. Sirtqi va kechki oliy ta'lim shakllari tiklandi. Keyingi uch yil ichida 15 dan ortiq rivojlangan davlatlarning nufuzli universitetlari filiallari ochildi. Bu dargohlarda ta'lim-tarbiya olgan yoshlar mamlakatimizning kuch-qudrati, dunyodagi mavqeini oshirishga xizmat qilishiga ishonamiz. Shuningdek, 2020 yil 23 sentyabrda Òzbekiston Respublikasining "Ta'lim tògrisida"gi Qonuni yangidan qabul qilindi. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati aniq maqsadlarni ko'zlagan holda, bosqichma-bosqich, kompleks chora-tadbirlarga asoslangan holda izchil davom ettirilmoqda. Konstitutsiyamiz yoshlar huquqlari ta'minlanishining asosiy kafolati bo'lmoqda.

#### **NATIJALAR**

Ma'lum bir davlat hududida yashab turgan inson uchun, qaysi davlatga mansubligi muhim ahamiyatga ega. Har bir insonning huquqiy maqomi uning qaerda

yashayotganligi, qaysi davlat fuqarosi ekanligi kabi holatlarga bogʻliq holda shakllanadi. Shu bois ham Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkinchi boʻlimi “Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari” deb nomlanib, unda “inson” va “fuqaro” maqomi alohida taʼriflanadi. Oʻzbekiston Konstitutsiyasining huquq va erkinliklarga bagʻishlangan normalari, agarda inson huquqlarini mustahkamlayotgan boʻlsa, odatda «har kim», «hech kim», «har bir shaxs» kabi iboralardan foydalanilgan. Agar Oʻzbekiston fuqarosi huquqlari va majburiyatlari mustahkamlanayotgan boʻlsa, “Oʻzbekiston fuqarolari” degan atamadan foydalanilgan. Oʻzbekiston Konstitutsiyasi insoniyatning uzoq davom etgan erkinlik va tenglik uchun kurashi jarayonida shakllangan umuminsoniy siyosiy- huquqiy qadriyatlarga boʻlgan eʼtiqodi va sodiqligini namoyish etib, inson va fuqaro huquq va erkinliklarini tizimli ravishda mustahkamlaydi. Shaxsiy huquq va erkinliklarning aksariyati insoniyat paydo boʻlgandan beri amalda boʻlib kelayotgan tabiiy huquqlardir. Shaxsiy huquq va erkinliklar deganda shaxslarning faqat oʻzigagina tegishli boʻlgan va hayoti davomida ajralmas boʻlib hisoblangan huquq va erkinliklar tushuniladi. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkinchi boʻlim, yettinchi bobida inson va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari huquqiy jihatdan mustahkamlangan.

#### **XULOSA**

Xulosa qilib aytadigan bòlsam, biz yoshlarni bilim olishimiz, qiziqishimizga qarab kasb-hunar egallashimiz, malakali mutaxassis bòlib voyaga yetishimizda, bizni kuchli, bilimli, dono va baxtli bòlib yashashimizni taʼminlashda Konstitutsiya asosiy hujjat bòlib xizmat qilmoqda.

#### **REFERENCES:**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning "Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini oʻrganishni tashkil etish toʻgʻrisida"gi Farmoyishi. 04.01.2001. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bòyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida"gi PF-4947-sonli Farmoni. 07.02.2017. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
4. Oʻzbekiston Respublikasining "Taʼlim toʻgʻrisida"gi Qonuni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

## KONSTITUTSIYA – FAROVON HAYOT TAMOYILI

**Xikmatov Said Safoyevich**

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi universiteti ofitseri*

**Baxtiyorov Faxriyor Akromjon o'g'li**

**To'xtamurodov Muhriddin Bahriddin o'g'li**

*4-bosqich kursantlari*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Konstitutsiyaning inson hayotidagi muhim o'rni, undagi huquq va majburiyatlar, Konstitutsiyaning bo'limlari va ularda nazarda tutilgan moddalar, jamiyat hayotidagi qonun ustuvorligi haqida bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Konstitutsiya, davlat, fuqaro, jamiyat, qonun, norma, yuridik, bo'lim, huquq*

### KIRISH

Konstitutsiya har bir davlatning asosiy qonuni hisoblarnadi. Uning normalari nafaqat davlat qurilishi, davlat hukumati va boshqaruvni tashkil qilish tamoyillarini, shu bilan birga ijtimoiy hayot normalarini ham tartibga soladi. Konstitutsiyada mustahkamlangan qoidalar yuridik asosni hosil qiladi, unga tayangan holda huquqning boshqa barcha tarmoqlari - fuqarolik, moliyaviy, jinoiy, mehnat va boshqalarning nomlari yaratiladi. Barcha me'yoriy – huquqiy hujjatlar (qonunlar, farmonlar, qarorlar va h.k) konstitutsiyaga asoslanadi. U barcha qonun hujjatlarining asosiy manbai hisoblanadi. Konstitutsiyada barcha joriy qonunlar uchun asosni tashkil qiladigan g'oyalar va nizomlar mustahkamlangan. Har bir davlatning huquqiy tizimida konstitutsiyaning ustuvorligi ayanan shu bilan belgilanadi. Konstitutsiyaning yetakchi o'rni shunda ham ko'rinadiki, mazkur davlatning fuqarolari bilan birga davlat va uning organlari ham unga amal qilishga majbur. Huquq va davlatning aynan shunday mutanosibligida jamiyatda konstitutsiya va qonunlarning amaliy ijrosi ta'minlanadi.

### TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Inson butun hayoti davomida qonunga bevosita bog'liq bo'ladi. Kishi samolyotda uchganda, uy sotib olganda, mashina haydaganda, uylanganda, o'qiganda yoki ishlaganda shu singari – hamma hollarda u yoki bu qonunlarga ishi tushadi.

Konstitutsiyaviy huquq sohasi har bir mamlakat milliy huquq sohasining tarkibiy qismi, davlat va jamiyat hayotining muhim jihatlari, asosiy ijtimoiy munosabatlar tizimi hisoblanadi. Ushbu ijtimoiy munosabatlar, o'z navbatida jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy sohalarda namoyon bo'ladi. Shu bilan birgalikda, ushbu ijtimoiy munosabatlar amalda jamiyat hayotini yo'lga qo'yish, davlat hokimiyatini amalga oshirish, boshqa ijtimoiy hokimiyatlar maqomini belgilash, shuningdek inson va fuqarolar huquq, erkinlik hamda burchlari bilan bevosita bog'liq. Bir so'z bilan aytganda, inson, fuqaro, jamiyat va davlat hayoti bilan bog'liq eng asosiy

ijtimoiy munosabatlar tizimi konstitutsiyaviy huquqning asosi hisoblanadi va aynan shu munosabatlar zamirida konstitutsiyaviy tuzum asoslari vujudga keladi, shakillanadi va rivojlanadi.

Mamlakatimiz milliy huquq tizimida O'zbekiston respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi deb keng ma'noda konstitutsiya va qonunlar asosida qurilgan, umuminsoniy qadriyatlar ustuvot deb topilgan xalqimizning hayot tarzi tushuniladi. Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi, ularda inson huquq va erkinligining eng oliy qadriyat sifatida mustahkamlanishi xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan normalarining tan olinishi kabi qoidalar bugungi kunda konstitutsionalizmning asosi sifatida qaralmoqda.

Konstitutsiyaviy huquq milliy huquq tizimidagi ko'plab huquq tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Biroq ta'kidlash joizki, huquq fanida "konstitutsiyaviy huquq" atamasi turli ma'nolarda qo'llaniladi. Bir tomondan, bu huquqning aniq bir tarmog'i, bunda "konstitutsiyaviy huquq"ning ko'plab xilma xil tarmoqlaridan bir sifatida qatnashadi. Ikkinchi tomondan, mazkur atama "konstitutsiyaviy huquq"ning yuridik fan tarkibiy qismi sifatidagi mazmunini ochib beradi. Uchinchidan esa bu atama ostida ta'lim muassasalarida o'rganiladigan o'quv predmeti tushuniladi. Huquqning tarmog'i sifatida konstitutsiyaviy huquq jamoatchilik munosabatlarini tartibga soladi. Fan sifatida davlat qurilish, shaxs va fuqaroning huquqiy maqomi, davlatning faoliyati, tuzilishi va hokazolarni o'rganadi. O'quv predmeti sifatida esa ma'rifatchilik vazifasini bajaradi va sohada to'plangan bilimlarni tarqatadi.

### **TADQIQOT NATIJALARI**

Konstitutsiyaviy tuzumning mazmun mohiyatini anglash borasida konstitutsiya tomonidan o'rntilgan tamoyillar salmoqli ahamiyat kasb etadi. Konstitutsiyaviy huquq tizimining asosi hisoblangan tamoyillarning ahamiyati, avvalo, ularning mazmunida umuminsoniy qadriyatlarining yotganligi, xalqaro umum e'tirof etilgan qoidalarning ustuvorligi asosida yaratilganligi va ular o'z navbatida milliy huquq tizimining poydevori bo'lib xizmat qilishi bilan ifodalanadi. Konstitutsiyaviy tamoyillarning ahamiyatli jihati yana shunda namoyon bo'ladiki, ushbu tamoyillar shaxs, jamiyat va davlat munosabatlarining ustuvor yo'nalishlarini, eng ahamiyatli jihatlarini o'zida ifoda etadi. Birgina davlat tuzumi yoki konstitutsiyaviy tuzum deb ifodalanuvchi konstitutsiyaviy tushunchalarni qo'llashda qaysi manfaatlar ilgari surilayotganligini ilg'ab olish qiyin emas. Agar davlat tuzumi tushunchasining zamirida davlat manfaatlari yoki davlat hokimiyatining ustuvorligi kabi g'oyalar mujassam bo'lsa, konstitutsiyaviy tuzum tushunchasi asosan konstitutsiyaviy qoidalarning ustuvorligi, ya'ni konstitutsiya tamoyillarining amaliy ifodasini namoyon etadi va shu orqali konstitutsiyaviy huquqiy munosabat himoya qilinayotganligi ko'proq anglanadi.

Konstitutsiya fuqarolarning, ular qayerda bo'lishlaridan qat'i nazar, qonun tomonidan kafolatlangan davlat himoyasida ekanliklarini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, asosiy qonunda jamiyatning hayot faoliyati sohalaridan kelib chiqib, huquq va erkinliklar taqsimlab berilgan. Shaxs va davlat munosabatlari nafaqat har bir milliy

huquq tizimi, balki xalqaro huquqning ham eng muhim obykti hisoblanib, ushbu munosabatlarni insoniylik mezonlari asosida tashkil qilish har bir jamiyat va davlat zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Konstitutsiyamiz insonning erkinligi va shaxsiy daxlsizligi huquqlarini qat'iy belgilabgina qolmay, uning sha'ni va obro'yini ham Konstitutsiyaviy tamoyillarning ahamiyatli jihati yana shunda namoyon bo'ladiki, ushbu tamoyillar shaxs, jamiyat va davlat munosabatlarining ustuvor yo'nalishlarini, eng ahamiyatli jihatlarini o'zida ifoda etadi. Birgina davlat tuzumi yoki konstitutsiyaviy tuzum deb ifodalanuvchi konstitutsiyaviy tushunchalarni qo'llashda qaysi manfaatlar ilgari surilayotganligini ilg'ab olish qiyin emas.

### **MUHOKAMA**

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi xalqaro hamjamiyat e'tirof etgan insonparvarlik prinsiplariga ko'ra, xalqimiz farovonligini ta'minlash uchun xizmat qilmoqda, inson haq huquqlari va erkinliklarining ustuvorligini ta'minlamoqda. Bu esa xalqaro huquqning umume'tirof etilgan, umumjahon miqyosida tan olingan barcha muhim qoidalari va prinsiplariga to'la mos keladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarga siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalariga birlashish huquqini beruvchi Konstitutsiya va qonunlarga zid kelmagan holatlarda amalga oshirishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan. Vakolatli organlarga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish-bu fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etishining amaliy shakllaridan biri bo'lib, bu huquq-fuqarolarning siyosiy faolligini namoyon qilishlarini, shuningdek, o'zlarining huquqlarini himoya qilishning muhim vositalaridan biridir.

### **XULOSA**

So'nggi yillarda mamlakatimizda davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarini tubdan isloh qilish, jumladan, inson huquqlarini ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, davlat hokimiyatini "xalq xizmatkori" tizimiga aylantirish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatini yanada rivojlantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh qilish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, hozirgi kunda qomusimiz bo'lgan konstitutsiyaga ham o'zgartirish kiritish bo'yicha takliflar qabul qilinyapdi. Shu bilan birga, yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi doirasida ilgari surilgan keng ko'lamlil vazifalar, xususan, adolatli davlat barpo etish, inson huquq va manfaatlarini, uning qadr-qimmatini yanada samarali ta'minlash kabi muhim maqsadlarga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Ularni amalga oshirish uchun zarur huquqiy asoslarni ta'minlovchi konstitutsiyaviy makonni yanada takomillashtirish oliy majlis tomonidan ko'rib chiqilmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. [https://uzsm.uz/uz/press\\_center/uzb\\_news/konstitutsiya-va-onunustuvorligi-huquqiy-demokratik-davlat-va-fuqarolik-jamiyatining-eng-muhimmez/](https://uzsm.uz/uz/press_center/uzb_news/konstitutsiya-va-onunustuvorligi-huquqiy-demokratik-davlat-va-fuqarolik-jamiyatining-eng-muhimmez/)
2. V. A. Kostetskiy. (davlat va huquq asoslar) -T.(Ynagiyo'l Poligraf Servis)
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya.

## KONSTITUTSIYA VA QONUNLARDA BOLA HUQUQLARINING HIMOYASI

**Kuldashev Ikrombek Xamidullayevich**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola bola huquqlari, ya'ni inson huquqlari avvalambor O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlanganligini Konstitutsiyamizning bosh yo'nalishi insonni va uning hayotini ulug'lash ekanligini inson va uning hayoti eriknligi sha'ni qadr-qimmatini hamda boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishini yoritishga bag'ishlanadi.*

**Kalit so'zlar:** *Demokratiya, Konstitutsiya, qadr-qimmat, erkinlik, huquq, burch, qonun, jamiyat*

### KIRISH

Bola huquqlari, bu umuman olganda inson huquqlari hamdir. Bola huquqlari, ya'ni inson huquqlari avvalambor O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan. Konstitutsiyamizning bosh yo'nalishi-insonni va uning hayotini ulug'lashdir. Asosiy qonunimizning 13-moddasida: "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, eriknligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi", deb mustahkamlab qo'yilgan.

Konstitutsiyaning II-bo'limi aynan inson va fuqarolarning huquq va erkinliklariga oid normalarni o'z ichiga oladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining VII, VIII, IX, X, XI-boblarida inson va fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy huquqlari, burchlari, shuningdek bu huquqlarni ta'minlash kafolatlari ham belgilab berilgan.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani yozish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik tamoyillardan foydalanildi.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Konstitutsiyasining VII, VIII, IX, X, XI-boblarida konstitutsiyaviy normalarga ko'ra inson dunyoga kelishi bilanoq, o'zining tabiiy huquqlariga, ya'ni shaxsiy huquqlariga ega bo'ladi. Masalan, Bosh Qomusimizning 24-moddasiga e'tibor qaratsak, unda: "Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir", -degan qoida mustahkamlangan. Yashash huquqi inson tug'ilishi bilan vujudga keladi, uning vafot etishi bilan tugaydi. Bu normada yashash huquqidan biror bir shaxsni mahrum qilish yoki uning hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyat ekanligi ta'kidlanib, bunday jinoyat uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining tegishli normalarida jinoiy javobgarlik belgilangan.

Bola huquqlariga to'xtaladigan bo'lsak, shuni ta'kidlash lozimki, davlat sog'lom bolaning tug'ilishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.



Sog'lom avlod jamiyatning eng katta boyligi hisoblanadi. Yosh avlod qadrlanmagan jamiyat hech qachon mukammal va tez rivojlana olmaydi. Kelajakni ishonib topshirish uchun har qanday jamiyat o'sib kelayotgan yosh avlodni qadrlamog'i, uning har tomonlama sog'lom qilib tarbiyalanishiga sharoit yaratib bermog'i lozim.

Konstitutsiya va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq har bir bolaga inson hamda fuqaro huquqlari va erkinliklari tegishli bo'ladi hamda davlat tomonidan kafolatlanadi.

Ma'lumki, keyingi vaqtlarda O'zbekiston milliy qonunchiligining xalqaro standartlarga uyg'unligini ta'minlash sari dadil olg'a siljimoqda. Fikrimizning dalili sifatida shuni aytish mumkinki, davlatimiz bola huquqlari kafolatlari to'g'risida, Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida va bola huquqlarini himoya qilishga doir boshqa qator qonunlarni qabul qildi.

Barchamizga ma'lumki, 1948 yil BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilingan. 1989 yil 20 noyabrda esa Bosh Assambleya rezolyusiyasi asosida "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya qabul qilindi. O'zbekiston davlati bu konvensiyani 1992 yil 9 dekabrda ratifikatsiya qildi. Keyinchalik 2008 yil 7 yanvarda O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinib, unga ko'ra bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilab berildi.

Bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish, bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash va ushbu sohadagi xalqaro majburiyatlarni bajarishning ta'sirchan tizimini yaratish maqsadida 2019 yil 22 aprelda yana bir huquqiy hujjat: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4296-son qarori qabul qilindi va unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman)

o'rinbosari – joriy etildi. Birlashgan Millatlar

Tashkilotining Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasini bajarish strategiyasini va bola huquqlari masalalari bo'yicha boshqa hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish huquqiga ega bo'ldi.

Darhaqiqat, "Bola huquqlarini ta'minlash hozirgi zamonning global muammolaridan biri bo'lib, uni hal etish bilan bog'liq masalalar jahon

hamjamiyatining doimiy diqqat e'tiborida turibdi. Bu bejiz emas, chunki yosh avlod jamiyat taraqqiyoti va istiqbolini ta'minlovchi yetakchi kuch hisoblanadi".1

Shuning uchun davlatimiz yuqoridagi qarorda belgilangan vazifalarni bajara borib, jismoniy va yuridik shaxslar, shu jumladan, bolalar hamda ular qonuniy vakillarining bola huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzilishi to'g'risidagi murojaatlarni ko'rib chiqish orqali bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishi kafolatlarini ta'minlab beradi.

